

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. O‘ZBEK TILIDA ONOMASTIK TADQIQOTLAR TAHLILI

- 1.1. O‘zbek tilshunosligida onomastik birliklarning o‘rganilish.....21
- 1.2. Antroponim – onomastikaning muhim tarkibiy qismi: tahlil, sharh, munosabat.....33

I Bob bo‘yicha xulosa

II BOB. ANTROPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

- 2.1. Antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari
- 2.2. Tarkibi diniy komponentlarga asoslangan ismlar semantikasi
- 2.3. O‘zbek tilida antroponimlarning yasalishi

II Bob bo‘yicha xulosa

III BOB. ANTROPONIMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

- 3.1. O‘xshatish va qiyoslash asosida hosil bo‘lgan antroponimlar
- 3.2. O‘zbek antroponimlarida milliy stereotipning ifodalanishi

III Bob bo‘yicha xulosa

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O‘zbek tili lug‘aviy boyligining tarkibiy qismlaridan birini antroponimlar tashkil etadi. Shu sababli atoqli otlar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘plash va tadqiq etishga alohida e‘tibor berib kelinmoqda. O‘zbek onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan soha bo‘lib, o‘zbek antroponimlari, toponimlari, gidronimlari, etnonimlari, qisman zoonimlarini monografik tarzda o‘rganish bo‘yicha anchagina ishlar amalga oshirilgan. Chunki kishi ismlari ham xalqimizning qadimiy nomlarining bir turi hisoblanadi. Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Shuning uchun antroponimlar milliy qadriyatlarimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu borada olib borilgan tadqiqotlar bevosita milliy o‘zligimizni anglashga, turli yot g‘oyalar, ommaviy madaniyatning ta’sirlariga berilmaslikka zamin yaratadi.

O‘zbek antroponimlarining lisoniy tadqiqiga oid yirik ishlar E.Begmatov, G‘.Sattorov, S.Rahimovlar¹, tomonidan amalga oshirilgan. Ma‘lumki, atoqli otlar o‘z genezisiga ko‘ra tilning eng qadimiy, yashovchan hamda turg‘un qatlamlaridan biridir. Ismlar o‘tmishda ko‘p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida yetib kelgan ulkan madaniy va ma‘naviy qimmatga molik bo‘lgan lug‘aviy qatlamdir. Ismlarning yaratilishida o‘zbek xalqi o‘tmishining tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, rasm-odatlarini, e‘tiqod va ishonchi o‘z ifodasini topgan. Mana shu ma‘noda ismlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi o‘zbek xalqi ma‘naviy qadriyatining tarkibiy qismidir. O‘zbek tilshunosligida tilni o‘zbek xalqining urf-odatlarini, tarixiy an‘analari va ma‘naviy olami bilan bog‘liq ravishda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir²”.

¹ Sattorov F. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.

² Mirziyoyev Sh.M Milliy tarqatqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild – Toshkent; O‘zbekiston, 2021.-B.29

O‘zbek antroponimlarining asos ma’nolarini tadqiq qilish, milliy madaniyatimizning antroponimlarda aks etishi va xalqimizning ma’naviy merosini ochib beruvchi jihatlarini ilmiy umumlashtirish o‘zbek xalqining o‘ziga xos mentalitetini anglashga yo‘l ochadi. Bu esa mazkur tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimini tadqiq qilish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o‘zbek antroponimlarining materiallarini to‘plash, ismlarning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlarini, lisoniy tuzilishi, etnografik-motivativ ma’nolarini tadqiq qilish, o‘zbek mintaqaviy antroponimiyasining o‘ziga xos tomonlarini kuzatish ishiga, ismlarning imloviy, izohli lug‘atlarini tuzish sohasiga E.Begmatov, N.Husanov, G‘.Sattorov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov³ va boshqalar munosib hissa qo‘shganlar. O‘zbek ismlarining imloviy va izohli lug‘atlari tuzilgan⁴. Shunga qaramasdan, o‘zbek antroponimlarining paydo bo‘lishi, rivoji, ismlarning nominatsion xususiyatlari, ism berishning motivativ asoslari, bunda lingvistik va nolingvistik tamoyillarning tutgan o‘rni, antroponimiyani sotsiolingvistik nuqtai nazardan ilmiy tadqiq qilish kabi muammolar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda. Ismlar tizimini sotsiolingvistik aspektda o‘rganmasdan turib antroponimlarning paydo bo‘lishi, antroponimlar tizimining rivojlanishi, boyishi va o‘zgarishi kabi xususiyatlarini ilmiy asoslash mumkin bo‘lmaydi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: Magistrlik dissertatsiyamizning obyektini hozirgi o‘zbek tili antroponimiyasi tizimi tashkil qiladi. Ishda o‘zbek antroponimiyasi materiallari, shuningdek, o‘zbek antroponimiyasining imloviy,

³ Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. –66 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Сатторов Ғ. Ўзбек исmlарининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Сатторов Ғ. Ўзбек исmlарининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. –25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.; Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

⁴ Бегматов Э.А. Ўзбек исmlари маъноси. –Тошкент: ЎЗМЭ, 1998. – Б. 604.

izohli lug'atlarida, o'zbek yozuvchilarning asarlari, matbuot sahifalarida uchraydigan ismlar ham magistrlik dissertatsiyasining predmeti etib belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari: Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi o'zbek antroponimlarini lingvokulturologik va sotsial-semantik jihatdan tahlil qilish, antroponimlarning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan mavjud motivlarni aniqlash, ularning ismlar ma'no strukturasi shakllanishida tutgan o'rni va rolini belgilash hamda uning uslubiy semantik jihatdan tadqiq qilishdir.

Ishning maqsadini amalga oshirish uchun magistrlik dissertatsiyasining oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- o'zbek antroponimiyasi uchun xos bo'lgan ismlarning materiallarini to'plash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- o'zbek antroponimlarining lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilish;
- o'zbek antroponimlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilish;
- milliy stereotipni aks ettiruvchi antroponimlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- o'zbek antroponimiyasi uchun xos bo'lgan ismlarni hosil qilishda ishtirok etgan komponentlar materiallarini to'plandi, ularning o'ziga xos xususiyatlari belgilandi;
- o'zbek antroponimlarining lingvokulturologik xususiyatlari doirasida o'xshatish asosida hosil bo'lgan va milliy stereotipni aks ettiruvchi ismlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ilmiy tadqiqot ishida o'zbek antroponimlarining leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari yoritilib, o'zbek antroponimlariga xos bo'lgan xususiyatlar haqida atroflicha xulosalar berildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: O'zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimini tadqiq qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o'zbek antroponimlarining materiallarini to'plash, ismlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini, lisoniy tuzilishi, etnografik-motivativ ma'nolarini tadqiq qilish, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasining o'ziga xos tomonlarini kuzatish

ishiga, ismlarning imloviy, izohli lugʻatlarini tuzish sohasiga E.Begmatov, N.Husanov, G'.Sattorov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov⁵ va boshqalar munosib hissa qoʻshganlar. Oʻzbek ismlarining imloviy va izohli lugʻatlari tuzilgan⁶. Mazkur tadqiqot ishida ushbu manbalar metodologik asos vazifasini oʻtadi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotning metodologik asosini til va tafakkur, obyektiv borliq va lisoniy belgi, narsa va uning nomi orasidagi munosabatga oid dialektik materializm qarashlari tashkil qiladi. Antroponimlarning semantik strukturasi oʻrganishda, ayniqsa, atoqli otlar maʼnosini toʻgʻri talqin qilishga erishishda oʻzbek tilshunosligi, turkologiya, jahon tilshunosligida mavjud ilmiy-nazariy xulosalarga tayanildi. Magistrlik dissertatsiyamizning tadqiq usullarini tavsifiy usul, qiyosiy-tarixiy usul, struktural, tipologik-tasnifiy talqin hamda sinxron tahlil usullari tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari hozirgi oʻzbek adabiy tili va lingvokulturologiyaga oid izlanishlarni nazariy maʼlumotlar bilan boyitadi. Shuningdek, oʻzbek tilida ism qoʻyish bilan bogʻliq jarayonlarda ham yoʻriq-noma vazifasini bajarishi mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, jami ____ sahifani tashkil etadi.

⁵ Husanov N. XV asr ўzbek adabiy ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. –66 б.; Husanov N. XV asr ўzbek adabiy ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Sattorov F. Ўzbek ismlarining turkiy qatlami: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Sattorov F. Ўzbek ismlarining turkiy qatlami: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. –25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.; Худойберганов Р. Ўzbek антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

⁶ Бегматов Э. Ўzbek ismlari maʼnosi. –Тошкент: ЎЗМЭ, 1998. – Б. 604.

I BOB. O‘ZBEK TILIDA ONOMASIOLOGIK TADQIQOTLAR TAHLILI

1.1. O‘zbek tilshunosligida onomastik birliklarning o‘rganilishi

Ma’lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o‘rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy va dialektal onomastika*, *odatdagi (amaliy) va poetik onomastika*, *zamonaviy va tarixiy onomastika*, *nazariy va amaliy onomastika* kabi turlarga bo‘linadi. Shulardan biri bo‘lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo‘llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo‘lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning *qiyosiy-tarixiy*, *struktur*, *genetik*, *areal*, *onomastik* xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik,

derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Til ijtimoiy hodisalardan biri bo'lib, unda xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy qarashlari, milliy rasm-rusumlari, turmush tarzi, orzu-istaklari o'z ifodasini topadi. Tilshunoslikda shunday lug'aviy qatlamlar borki, ular ma'lum bir xalqning hayoti, urf-odati, tarixi bilan bog'liqdir. Bunday lug'aviy qatlamlarni o'rganish shu xalq tarixi va etnografiyasini o'rganishni taqozo qiladi.

Nomshunoslik (ismshunoslik, antroponimika) har bir xalq tarixi, etnografiyasi ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan bog'lanib ketadi. Kishilarga va joylarga nom berish turli davrlarda xalqning ijtimoiy hayot sharoitlari, jamiyatda tutgan o'rni, uning madaniy saviyasi, dunyoqarashi, urf-odati, rasm-rusumlari bilan bog'liqdir. Nomlar tabiat va jamiyatdagi muayyan o'zgarishlar bilan bog'liq holda, ma'lum qonuniyatlar asosida vujudga keladi va xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir.

Atoqli otlar tarixchilar, geograflar, tilshunoslar uchun ham boy material beradi. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy onomastika o'ziga xos xususiyatga ega. Hayot taraqqiy etgan sari kishilarning mafkuraviy, diniy qarashlari, siyosiy hayoti atoqli otlarda aks etganini ko'ramiz. Ayrim tarixiy kitoblarni kuzatsak, eramizdan ilgari davrda paydo bo'lgan atoqli otlarga duch kelamiz. Qadimiy davr atoqli otlari o'sha davrda hukmron bo'lgan zardushtiylik mafkurasini, keyinchalik buddizm diniy qarashlarini ifodalagan. O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan esa bu din bilan bog'liq bo'lgan ko'plab nomlarning paydo bo'lganini ko'ramiz. Ammo, onomastikada xalq diniy qarashlarining ifodalanishiga turli davrlarda turli xil munosabatda bo'lib kelingan. Nomlarda xalq diniy qarashlarining ifodalanishini tabiiy hol deb tushunish lozim. "Din odamlarni birlashtiruvchi, insof va adolatga chaqiruvchi ulug' g'oya" sifatida ham xalqning qalbidan mustahkam joy olgan edi.

Ayniqsa, islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” va “Hadis”larning mazmunida musulmon diniga kiruvchi xalqlar orasida ko‘plab xalqchil va demokratik g‘oyalarning ilgari surilishi bu dinning xalq orasida yashovchanligini ta’minlagan.

Tilshunos olimlarning fikrlariga ko‘ra, “o‘tmish onomastikasini o‘rganish bilan bog‘liq murakkab muammolardan biri “tarixiy nomlar” tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini (tarixiy norma) zamonaviy (hozirgi davr) ismlar fondidan (sinxronik, ya’ni davriy norma) farqlash, chegaralash masalasidir. Chunki tarixiy (qadimiy) deb yuritiluvchi ko‘pgina nomlar hozirgi davr o‘zbek onomastikasida iste’molda mavjuddir. Bunday nomlar tilda paydo bo‘lish davri va yashash davriga, ya’ni stajiga ko‘ra tarixiy bo‘lsa-da, qo‘llanilishi, hayotiyligiga ko‘ra zamonaviy hamdir.

Demak, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Chunonchi, *Amir, Temur, Muhammad, Sulton, Bobur, Ulug‘bek* ismlari ham qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir. Ismning tarixiy ekanini nomning qadimda (o‘tmishda) mavjud bo‘lgani, uning ma’lum o‘tmish tarixiy yozma manbalarda yoki folklor tilida uchrashi kabi xususiyatlar belgilaydi. O‘tmishda uchragan nomning hozirda ishlatilmasligi nomning iste’moldan chiqqan, unutilgan, hatto “o‘lik” ismlar qatoriga kiritadi. Mana shunday nomlarning ma’no va etimologik xususiyatlarini o‘rganish tarixiy antroponimiya tadqiqotlari uchun muayyan ahamiyatga ega. Chunki bu nomlarda har tomonlama tarixiylik belgisi kuchlidir.

Tadqiqotchi R.Nuriddinova nomzodlik dissertatsiyasining “Onomastika terminlarining mavzuviy tasnifi” deb nomlangan birinchi bobidagi “Onomastika sohasining ilmiy yo‘nalishlarini ifoda etuvchi terminlar” bo‘limida atoqli otlarni o‘zaro farqli tiplarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo‘nalishlarni anglatuvchi terminlar sirasiga antroponimika, onomastikaning ilmiy sohalarini tarixiylik, zamonaviylik nuqtai nazaridan nomlovchi terminlar sifatida *tarixiy onomastika, o‘zbek tarixiy nomshunosligi, o‘tmish nomshunosligi* kabi terminlarni misol sifatida ko‘rsatadi. Olima “Onomastik birliklarning tarixiy (davriy) mansubligiga oid tushunchalarni ifoda qiluvchi terminlar” bo‘limida esa har qanday tildagi

onomastik birliklar bir davrning mahsuli emasligi, balki tilda qadimiyatdan tortib, shu kunga qadar yuzaga kelgan lisoniy hodisa ekanligini qayd etib, o'zbek onomastikasida onomastik birliklar tarixiylik davriy mansubligiga ko'ra ikki katta guruhga bo'lib tadqiq etilayotganligini e'tirof etadi: 1.Tarixiy nomlar. 2.Yangi zamonaviy nomlar. Shunga ko'ra tarixiy nomlarni atash uchun tilshunoslikda quyidagi terminlardan foydalanilayotganligini aniqlagan. Tarkibida "tarixiy" so'zi qatnashuvchi terminlar: tarixiy nomlar, tarixiy antroponimiya, tarixiy ismlar; tarkibida "qadimgi", "azaliy" so'zlari qatnashgan terminlar: qadimgi nomlar, qadimiy yahudiycha ismlar, azaliy nomlar, qadimiy yunoncha ismlar⁷. Bizning fikrimizcha, R.Nuriddinova qo'llaganidek "tarixiy nomlar", "yangi zamonaviy nomlar" tarzida emas, ularni "tarixiy onomastik birliklar" va "zamonaviy onomastik birliklar" birikmali terminlari bilan atash ma'qul. Chunki onomastika sohasining tarixiylik va zamonaviylik xususiyatini inobatga olish lozim.

Bu haqda o'zbek tarixiy antroponimiyasini tadqiq qilish ishlarini boshlab bergan va unga munosib hissa qo'shgan tadqiqotchi N.Husanov "O'zbek antroponimlari tarixi" asarida o'zbek nomshunosligi va tarixiy antroponimiya muammolari haqida fikr yuritir ekan, o'zbek tilidagi tarixiy nomlar ma'lum davr va manbalar asosida o'rganilmaganligini, o'zbek nomshunosligi bo'yicha darslik va qo'llanmalarning yo'qligi bu sohani tilshunoslikning boshqa bo'limlari qatori oliy maktablarda sistemali ravishda o'qitish va o'rgatishga imkon bermayotganligini alohida ta'kidlaydi. U bizning mavzumizga doir antroponimlar tarixi haqida fikr yuritib, ismlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri tarixiy ismlar tushunchasini konkretlashtirish va tarixiy nomlar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasini o'rta qo'yadi⁸. Bu turkumdagi nomlarning bir qismi hozirgi o'zbek ismlari fondida mavjudligi, qo'llanishi, ular ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga egaligini *Ulug'bek*, *Tangriberdi*, *O'lmas*, *O'tkir*, *Temur* ismlari misolida asoslab, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xarakteriga ega ekanligini isbotlab bergan. Yuqoridagilardan shunday

⁷ Nuriddinova R. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. – T., 2005. – B. 9-10.

⁸ Husanov N. O'zbek antroponimlar tarixi. – T., 2014. – B.12

xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tarixiy nomshunosligi sohasi o‘zbek onomastikasining o‘tmish tarixini, nomlarning paydo bo‘lish asoslarini, nomlar lug‘aviy fondining shakllanish manbalarini va unda milliy-lisoniy o‘ziga xosliklarning paydo bo‘lish omillarini, bunda muhim rol o‘ynagan lisoniy hamda nolisoniy asoslarni atroflicha o‘rganish kerak. Quyida zamonaviy onomastika bo‘yicha yetarli ma’lumotlar mavjudligini hisobga olib, tarixiy onomastika va uning tarkibiy qismlarini o‘rganuvchi bo‘limlar nomlarini sharhlaymiz:

1. Tarixiy onomastika.
2. Tarixiy antroponimika.
3. Tarixiy toponimika.
4. Tarixiy etnonimika.

Bunday onomastik tushunchalarining o‘zaro farqli va o‘xshash belgi-xususiyatlarini aniqlash va bilish tarixiy onomastikani tadqiq etishda va bu soha bo‘yicha tadqiqot ishlari olib boruvchi tadqiqotchilar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Hayot taraqqiy etgan sari nomlar ham o‘zgarib, saralanib boradi. O‘zbek tarixiy nomshunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan biri bu nomlarni konkret aniqlash va ularning lisoniy hamda etimologik xususiyatlarini o‘rganishdir.

Tildagi atoqli otlar lingvistik va nolingvistik jihatdan ham, tuzilish jihatidan ham murakkabdir. Bu nomlar til lug‘atidagi murakkab leksik-semantik tizimlar, guruhlar yig‘indisidir. Tarixiy onomastika materiallarini har tomonlama tahlil qilish, ularning lisoniy va nolisoniy mohiyatini ochish uchun xilma-xil usul va aspektlarda tadqiq olib borish lozim bo‘ladi. Nomlarni lingvistik va nolingvistik jihatdan o‘rganish ularning materialini ma’lum usullarda tasnif qilishni talab qiladi. Prof. A.V. Superanskaya bu haqda: “Atoqli otlar tahlili va bayonini ma’lum klassifikatsiyalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Chunki onomastik ishda u tadqiqotchining asosiy harakat programmasi bo‘lib xizmat qiladi... Ba’zan ishning asosi-shu tasnifning o‘zi bo‘lishi ham mumkin. Onomastik hodisalarning turli-tumanligi tufayli atoqli otlar ustida o‘tkaziladigan klassifikatsiya parametrlari ham

turli xil bo‘lishi tabiiydir”⁹ , deb yozgan. Bunday tasnif qilishning ham o‘z tarixi, qonuniyatlari bor. Olimlar uzoq yillar davomida turli xil onomastik tasniflarni yaratib, bu borada ma‘lum yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Y.M.Chernyakovskaya: “Qanday qilganda onomastika materiallari tarkibini to‘g‘ri va aniq tasvirlab berish mumkin? Ushbu savolga javob topish uchun toponimiya va antroponimiya materiallarini tasnif qilish zarurati ham tug‘iladi”¹⁰ , - deb yozgan edi. Onomastika uzoq yillar tilshunoslikning bo‘limi sifatida tan olinmadi va bu sohaga tarix, geografiya va boshqa fanlar uchun yordamchi vosita sifatida qarab kelindi. Chunki tildagi atoqli otlarning yuzaga kelishi turdosh otlarga nisbatan nomning nolisoniy tomonlari bilan ko‘proq bog‘langan bo‘ladi. Onomastika tilshunoslikning asosiy bo‘limi sifatida tan olingandan keyin antroponimiya va toponimiya materiallarini klassifikatsiya qilish ishi bilan ko‘plab olimlar shug‘ullandi.

Onomastik tasniflarni ba‘zi olimlar maxsus o‘rganganlar. Polyak tilshunosi V.Tashitskiy, rus tilshunoslari A.V.Superanskaya, Y.M.Chernyaxovskayalar bu masala bilan maxsus shug‘ullanishgan. A.V.Superanskaya bir qator ilmiy ishlarda, xususan “Общая теория собственных имен” kitobida atoqli otlar tasnifiga maxsus to‘xtalib o‘tadi. A.V.Superanskaya atoqli otlar tasnifiga to‘xtalib, ularni ikki asosiy guruhga bo‘lishni tavsiya qiladi: 1) lingvistik tasniflar; 2) lingvistik bo‘lmagan tasniflar.

A.V.Superanskaya Otlarning lingvistik va ekstralingvistik xarakteristikasiga diqqat qilgan holda quyidagi tomonlarni asosga oladi:

1. Nomlarning atalayotgan obyektlarning xarakteri bilan bog‘liq bo‘lagi tasnifi.
2. Tabiiy paydo bo‘lgan nomlar va yasama nomlar.
3. “Mikro” va “makro” liniyalari bo‘yicha nomlar tasnifi.
4. Nomlarning struktural tasnifi.

⁹ Суперанская А.В. Общая теория собственных имен. –М.: Наука, 1973. –с.148.

¹⁰ Черняховская Е.М. Сборник Развитие методов топонимических исследований. –М., 1970. –с.55.

5. Xronologik tasnif
6. Nomlarning ma'no yaqinligiga ko'ra tasnifi
7. Nomlarning atalayotgan obyekt ma'nosiga bog'liq bo'lgan tasnifi
8. Til – nutq dixotomiyasi bilan bog'liq bo'lgan tasnif.
9. Stilistik va estetik tasnif

Bu sohada turkologiyada ham salmoqli ishlar qilindi, xususan, o'zbek, qozoq, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, tillari antroponimiyasi va toponimiyasiga oid qator ilmiy ishlar yozilganki, ularning har biri to'plangan materiallarning xususiyatidan, o'zlari ish olib borayotgan tilning xususiyatidan, shuningdek har bir xalq hayoti taraqqiyotining o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda nomlarni tasnif qilishgan va muayyan guruhlarga ajratgan.

Biz onomastika, xususan tarixiy onomastika haqida ularning ilmiy tadqiqot ishlariga tayanib ish tutamiz. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, har qanday holda ham qanday tasnifning foydali va o'rinli ekanini til materialining o'zi belgilaydi. Shu sababli har qanday atoqli ot guruhlarining barchasi uchun bir xil, doimiy tasniflar bo'lishi qiyin. Atoqli otlar tasnifida quyidagi usullar tilshunos olimlar jamoasi tomonidan ma'qullangan:

1. Atoqli otlarni nom qanday obyekt (subyekt ham)ni ifodalashiga ko'ra tasniflash. Bugungi kunda onomastik tadqiqotlarda ko'p qo'llanilayotgan antroponimiya, toponimiya, astronimlar, zoonimlar, ideonimlar, dokumentonimlar, ergonimlar, faleronimlar(mukofot va nishonlar nomini o'rganuvchi bo'lim) singari terminlar va ular zaminida yotuvchi atoqli otlar mazkur tasnifning mahsuli hisoblanadi.

2. Nom ifodalayotgan obyektning hajmiy xususiyatiga ko'ra atoqli otlar tasnifi: makrotoponimlar, mikrotoponimlar ushbu tasnifga kirgan.

3. Atoqli otga asos bo'lgan apellyativ so'zning tarixiy manbai, ya'ni qaysi tilga mansubligiga ko'ra nomlar tasnifi. Umumturkiy nomlar, o'zbekcha nomlar, fors-tojikcha nomlar, arabcha nomlar, mo'g'ulcha nomlar, xitoycha nomlar deb yuritilayotgan tushunchalar mana shu tasnifga asoslangandir.

4. Nomlarni tarixiy-xronologik prinsp asosida tasniflash. Bu tasnifda nomlarning yuzaga kelishi ko‘zda tutiladi va nom shu nuqtai nazardan ma'lum qatlamlarga bo‘linadi. Chunonchi: eng qadimgi qatlam, qadimiy qatlam, tarixiy qatlam, yangi qatlam yoki zamonaviy qatlam kabi. Onomastik nomlarni yuqoridagi tasnifga tayanib o‘rganish tarixiylik nuqtai nazardan albatta nisbiydir.

5. Nomlarning lug‘aviy-morfologik asosi (manbai)ga, ya’ni nomning qaysi so‘z turkumiga tegishliligiga ko‘ra ham tasniflash mumkin. O‘zbek toponomiyasiga oid tadqiqotlarda “fe’l toponimlar” termini uchrab turadi. Sifat va olmosh toponimlar haqida ham fikr yuritish mumkin.

6. Onomastik materialni nomning strukturasiqarab tasnif qilish asosida o‘rganish mumkin. Bunday tasnif qilish onomastikaning toponimika sohasida keng tarqalgan. Atoqli otlarni grammatik strukturasiqarab ko‘ra

a) sodda nomlar; b) qo‘shma nomlar; v) juft nomlar; tarkibli (birikmali) nomlar singari ajratish mumkin.

7. Atoqli ot materiallarini etimologik tahlillar nuqtai nazaridan tasniflash mumkin. Bu yo‘l bilan: a) ma’nosi aniq (tushunarli) nomlar, b) ma’nosi noaniq (tushunarsiz) nomlar belgilanadi.

8. Onomastik materialni zamonaviylik nuqtai nazaridan o‘rganish va tasniflash mumkin. Bu yo‘l bilan hozirda: a) o‘lik, nofunktsional nomlar; b) funktsional yoki tirik (hayotiy) nomlarga ajratiladi. Ularni “tirik nomlar”, “o‘lik nomlar” singari terminlar bilan ham atash mumkin. Chunonchi, A.Navoiy asarlarida uchraydigan Yasrib (Makkaning eski nomi) Kesh, Kash (Shahrisabzning eski nomi) nomlari o‘lik atoqli otlar sirasiqarab kiradi.

9. Onomastik birikmalarni, jumladan, antroponim, toponimlarni uslubiy-nominatsiya xususiyatlarisqarab ko‘ra ham guruhlash mumkin, masalan, badiiy asar tilidagi har bir so‘z jumladan nomlar ham ma'lum darajada uslubiy vazifa bajaradi. Ayniqsa, o‘zbek klassik adabiyoti tilidagi nomlar xilma-xil vazifalarda qo‘llangan. Shu nuqtai nazardan ularni:

a) neytral-nominativ vazifali nomlar;

b) uslubiy vazifa bajaruvchi nomlar;

v) aralash vazifa bajaruvchi nomlar singari guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Atoqli otlarning uslubiy ishlatilishi o‘rganish, bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

10. Nomlar fondida, ayniqsa o‘zbek tarixiy onomastikasida real, ya’ni hayotda mavjud va noreal, ya’ni afsonaviy to‘qima, diniy-mifik nomlar uchraydi. Bu nomlarni ular mazmunidan kelib chiqqan holda ularni:

a) hayotda konkret mavjud bo‘lgan, ya’ni real nomlar;

b) noreal, ya’ni hayotda mavjud bo‘lmagan ramziy atoqli otlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan onomastik tasniflar qo‘llanilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ba’zilari qo‘llanish jihatidan universal xarakterga ega bo‘lgani holda, ba’zi birlari esa ma’lum darajada chegaralangan bo‘ladi. Tadqiqotchi o‘z ishida ulardan qaysi birini qo‘llashi to‘plangan materialning xususiyatiga qarab belgilanadi. Nomlarni tasnif qilishda lingvistik, ekstralingvistik nuqtai nazarga, shuningdek, ham lingvistik, ham ekstralingvistik asosga tayanish mumkin.

Shu bilan birga, atoqli otlarni tasnif qilishda yana bir nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ish tutish imkoni borligini qayd etmoqchimiz. Bu keyingi paytlarda nomshunoslik ishlarida qo‘llana boshlagan “onomastik birliklar” tushunchasi bilan bog‘liqdir.

Atoqli otlarni onomastik birliklar nuqtai nazaridan tasniflash yuqorida qayd qilingan tasniflarning birinchisiga, ya’ni nom qanday obyektни anglatib kelishiga ko‘ra tasniflashga to‘g‘ri keladi. Onomastika, jumladan o‘zbek *onomastikasi tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya* kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqador fan sanaladi. O‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar orasida eng muhimlaridan biri E.Begmatovga tegishlidir. Mazkur tadqiqot o‘zidan keyin yaratilgan ko‘pgina ishlar uchun dasturilamal vazifasini o‘tagan. Shuningdek tilshunosligimizda T.Enazarov, A.Abdulazizov, N.Xusanov, R.Xudoyberganov, M.Rasulova, S.Kenjaeva, I.Xudoynazarov, D.Yuldoshev, S.Rahimov, Sh.Yoqubov, N.Mo‘minov

kabi olimlarning qator tadqiqotlari mavjud bo'lib, ularning lingvistik qarashlarini e'tirof etgan holda aytish mumkinki, bu ishlarning e'tibor markazida inson va uning ismi, ismning shaxs dunyoqarashiga ta'siri, insonning olam va odam bilan o'zaro aloqasini aniqlash yotadi.

Keyingi davrlarda antroponimlarning antroposentrik tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yaratildiki, bu nomshunoslikning lingvokognitiv jihatdan o'rganishga qiziqishning oshganligini ko'rsatadi. Fikrimizning asosi sifatida D.Xudoyberganova¹¹, N.Ahmadjonov¹², D.Yo'ldoshev¹³ kabi olimlarning ishlarini keltirishimiz mumkin. Onomasiologik tadqiqotlarni amalga oshirishda antroponimlar quyidagi guruhlar asosida o'rganiladi:

1. Hayvonlar, qushlar va boshqa jonzotlar nomiga asoslangan ismlar: *Sherbek, Qumri*;

2. O'simliklar, daraxtlar hamda ulardan olinadigan mahsulot va mevalar nomi: *Rayhon, Sumbul, Nilufar, Ra'no*;

3. Tabiiy joylar va o'rinlar, suv obyektlari hamda suv bilan bog'liq leksemalarga asoslangan kishi ismlari: *Madina, Chaman, To'lqin va boshqalar*.

4. *Samo va samo jismlari nomi bilan bog'liq leksemalar: Oybarchin, Yulduz, Mohinur, Oftoboyim* kabi;

5. Fasllar, oylar, kunlar nomi va aynan fasl, oy yoki kun doirasidagi ma'lum bir paytni anglatuvchi leksemalar, fasllardagi holatni anglatuvchi so'zlarga asoslangan antroponimlar: *Bahora, Navro'z, Chorshanbi, Hayitgul, Bozor* kabi;

6. Tabiiy hodisalar, nur va olov tushunchalari nomi: *Oloviddin, Yorqinoy, Nurbek, Munavvar, Uchqun* v.b;

7. Kasbi-kor, mavqe, mansab, unvon, ish qurollari nomlari: *Dehqon, Sayyod, Amir, Askar, Qilich, Bolta* kabi;

8. Qabila va elat nomlari: *Barlos, Qozoqboy, O'zbekoyim, O'zbek, Qirg'izboy, Oybek, Oybeka, Oybika, Mitamboi*.

¹¹ Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини. Филол.фан.док.дисс.авторреф. – Тошкент, 2015. 72 б.

¹² Ахмаджонов Н. Бадий услубда қўлланилган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.бўйича фалс.док. дисс.авторреф. – Қарши, 2021.

¹³ Юлдошев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: филол.фан.док.дисс.авторреф. – Тошкент, 2021.

9. Ba'zi tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar, holatlar bilan bog'liq nomlar: *Ofat, Ozodbek, O'tbosar*.

10. Rasm-rusum, urf-odat, turli tushunchalar, tilaklar, ijobiy xislatlar bilan bog'liq leksemalar: *Poyon, Sunnat, Qizlarbas Bayram, Tursin, Davlat* kabi;

11. Qarindoshlik, qondoshlik ma'nolarini anglatuvchi leksemalar: *Otajon, Otabek, Og'abek, O'g'iloy, Boboqul* v.b;

12. Sonlar va miqdoriy ma'noli leksemalar: *Oltmishboy Oltiboy, To'qsonboy*;

13. Jismoniy belgilarni, rang-tusni, ko'rinishni ifoda etuvchi leksemalar: *Xolida, Norxol, Nortoji, Qorasoch, Nafisa, Ortiq, Go'zal, Latofat*;

14. Turli mustahkam tabiiy ma'danlar, matolar, kiyim-kechak, taqinchoqlar, qimmatbaho toshlarni anglatuvchi leksemalar: *Toshpo'lat, Po'lat, Temurbek, Gavhar, Kumush, Feruza, Javohir*;

15. Ollohning nomlari, diniy tushunchalar va tasavvurlar, payg'ambarlar nomlari bilan bog'liq leksemalar: *Xudoyberdi, Egamberdi, Xudoyqul, Mehroj, Ibodat, Malak* va h.k.z. Shuningdek, genetik hosil bo'lishi jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O'z qatlamga oid: *Go'zal, Botir*;

2. O'zlashgan qatlamga oid. O'zlashgan qatlamga oid antroponimlarni ham ichki guruhlariga ajratishimiz mumkin. *Arabcha*: Rajab, Rasul, Abbos; *forscha*: Zebo, Jahongir, Gavhar. O'zlashgan qatlamga oid kishi ismlari asosan, *arabcha+forscha* (Alisher), *forscha+arabcha* (Mohinur), *o'zbekcha+arabcha* (Bekzod), *o'zbekcha+forscha* (Bekmurod) tarkibida namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda ko'pgina antroponimlar iste'molda emas yoki kam qo'llaniladi. Chunki jamiyatning rivojlanishi, albatta, insonlar tafakkuriga, dunyoqarashiga ta'sir o'tkazmoqda. Keyingi vaqtlarda urfga aylangan zamonaviy ismlar ham qandaydir asos bilan qo'yilmoqda. Ammo, masalaning bu tomonini tadqiqotimiz uchun vazifa qilib olmaganimiz bois bo'lishini inobatga olib, kengroq to'xtalmaslikka qaror qildik.

1.2. Antroponim – onomastikaning muhim tarkibiy qismi: tahlil, sharh, munosabat

Borliqdagi insonlar, narsa-hodisalar hamda ularning nomlari xilma-xildir. Masalan, *uzum* leksemasi quloqqa chalinganda bevosita ko‘z oldimizga tok mevasi keladi. Bu nomlash umumiy ahamiyat kasb etib, uning navlari nomi *rizamat*, *chilgi*, *husayni* kabi ifodalanadi. Narsa, voqea-hodisa hamda shaxslarni alohida, yakkalab nomlash jamiyatning kundalik kommunikativ muloqoti, lisoniy hayoti uchun muhimdir.

E.Begmatov “O‘zbek tili antroponimikasi”da nomlash xususida shunday so‘z yuritgan: “Qadimda kishilar tabiat hodisalarining sirini hali yaxshi bilmasdan ko‘zi tushgan narsalariga umumiy nom berishgan. Bunday nomlar turli obyektlarni, narsa-hodisalarni ajratish, farqlash uchun xizmat qilgan. Masalan, *suv* so‘zi ichimlik va boshqa har qanday suvni anglatgan. Ammo asta-sekin qadimiy odamlar atrofidagi oqadigan turfa suv obyektlariga duch kelishgan va ularning o‘zaro tafovutlarini sezishgach, alohida nom berishga ehtiyoj sezishgan (*daryo*, *ko‘l*, *irmoq*, *dengiz*, *buloq* va boshqalar). Bora-bora o‘z yashash hududlarini eslab qolish maqsadida suv havzalariga alohida nomlar qo‘yishgan va bu nomlar o‘ziga xos belgi vazifasini o‘tagan. Qadimdan mavjud bo‘lgan Oqdaryo, Qoradaryo kabi nomlar mana shunday paydo bo‘la boshlagan”¹⁴.

Dastlab, kishilar nomlari ular yashaydigan urug‘ nomi bilan bir xil yoki aynan shunga asoslanib qo‘yilgan. Urug‘ nomlari ham o‘sha etnik guruh muqaddas, ilohiy deb hisoblovchi hayvon yoki qush nomidan kelib chiqib nomlangan. Masalan, *Qarg‘a*, *Bug‘u*. Asta-sekin bu an‘ana o‘zgarib har bir shaxs uchun alohida nom va laqablar yuzaga kela boshlagan. Buning natijasida ilk atoqli otlar paydo bo‘lgan.

Tildagi atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, semantik asoslari, motivlanishi hamda lisoniy strukturasi onomastika bo‘limi tadqiq etadi. Onomastika o‘rganadigan til birliklari atoqli otlarning formalari hisoblanadi.

¹⁴ Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi //”Fan” nashriyoti; Toshkent – 2013. 8-bet.

Taniqli nomshunos A.V.Superanskaya atrofda real hamda noreal (xayoliy) obyektlarni ifoda etadigan nomlarni 19 tipda yoritadi¹⁵.

Onomastika haqida qilingan barcha ilmiy tadqiqotlarda antroponim haqida soʻz yuritilgan. Antroponim soʻzi grekcha “antro” - “odam” degan maʼnoni anglatib, kishilarga nom berish degan maʼnoni anglatadi. Oʻzbek tilida bu termin kishi ismi, kishi nomi yoki odam nomlari koʻrinishida ham istifoda etiladi. Antroponimlar onomastikaning muhim birliklaridan biri boʻlib, oʻz ichiga aniq birliklarni qamrab oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antroponim haqida fikr yuritib, uning tarkibiga ism, sharif, familiya, kriptonim (laqab), andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan¹⁶.

Biror tildagi antroponimlarni oʻrganuvchi boʻlim antroponimiya (masalan, oʻzbek antroponimiyasi), ularni tadqiq qilish hamda oʻrganish sohasi esa antroponimika deyiladi.

Professor E.Begmatov tasnifiga koʻra, oʻzbek antroponimiyasini tashkil etuvchi birliklar quyidagilar:

1. Ismlar-konkret shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. Oʻzbeklarda shaxsni nomlashni oʻtmishda mavjud boʻlgan shakllari yordamida nomlash (qizi, oʻgli).
5. Shaxsni uning ismiga oʻtmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida.
6. Oʻtgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya hamda ota ismlari¹⁷.

Bugungi kunda zamonaviy antroponimiyada bu tasnifdan kishilarni atashning arabcha shakllari chiqib ketgan. Taxallus hamda laqablar ham maʼlum doirada qoʻllanilib nisbatan chegaralangan. Maʼlum hududda qoʻyilgan laqablar

¹⁵ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М; Наука, 1973. С. 144-145

¹⁶ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. С.31.

¹⁷ Begmatov E. Oʻzbek tili antroponimikasi //”Fan” nashriyoti;Toshkent – 2013.11-bet.

boshqa hudud uchun begona tushunchani anglatasa, taxalluslar, asosan, adabiy doira vakillari tomondan tushuniladi. Ismlar neytral antroponimik shakllar bo‘lib, hamma joyda ishlatiladi.

Onomastikaning tarkibiy qismlari bo‘lgan antroponim, toponim, gidronim, zoonim va boshqalar makrosistemalar hisoblanadi. Bu makrosistemalar bir necha tarkibiy qismlar (mikrosistemalardan) tarkib topgan. Xususan, antroponimlarga kiruvchi mikroko‘lamlar quyidagilar: Ismlar, laqablar, taxalluslar, familiya hamda sharif(otaism)lar, patronim, matronim, eponim hamda genonimlar.

Mustaqillik tufayli eski tuzum va mafkura o‘rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqimizning orzu-umidi va maqsad-muddaosini o‘zida mujassamlashtirgan holda O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o‘ziga xos istiqbollari belgilab olindi. Bular o‘zida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimiz ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik tuyg‘ularini mujassamlashtirgan bo‘lib, shu asosda xalqimiz o‘z tarixini o‘rganish, kelgusi avlodlarning ma’naviy mulkiga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xullas, O‘zbekistonda istiqlolning mutlaqo yangi, milliy an’analar zahirida shakllangan antroponimik siyosati yuzaga keldi.

Lingvokulturologiyaning fanning maxsus tarmog‘i sifatida shakllanishi XX asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatni tashuvchisi sifatida o‘rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi. Lingvokulturologiyaning predmeti – madaniyatda ramziy, obrazli, metoforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.

Xalqimiz orasida o‘zini shu elning ziyolisi, madaniyatli farzandi deb hisoblagan har bir inson, avvalo, yashab o‘tgan yetti otasi, avlod-ajdodlari shajarasi, urf-odati va udumlarini bilishi shart sanaladi. Buning uchun ma’lum xalq, qabila hamda ular negizida shakllangan antroponim va etnotoponimlardan xabardor

bo‘lish talab etiladi. Bu borada yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagicha fikr bildirgan: “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”¹⁸. Tarixiy xotirani tiklash faqat tarix bilan bog‘liq fanlarning vazifasiga kirmaydi, balki bu borada unga eng yaqin yordam beradigan fan bu – tilshunoslik sanaladi. Zero, V.Gumboldt aytganidek: “Til tarixi-xalq tarixi” demakdir¹⁹. Xalqning tarixi, milliy urf-odatlar, an‘analari, bir so‘z bilan aytganda, xalqning o‘zligi onomastika va uning bir tarmog‘i bo‘lgan antroponimlarda o‘z aksini topadi. Bu esa bevosita antroponimlarning shakllanish motivlarini o‘rganish orqali ochib beriladi. Onomastika va uning bir tarmog‘i bo‘lgan antroponimlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda motivatsiyaning mazmun mohiyatiga, antroponim so‘zining mazmuniy tuzilishiga, antroponimlarning etimologiyasiga, atoqli otlarning strukturasi, ismlarning yuzaga kelishidagi sabab, ehtiyoj, istak-orzu va boshqa xususiyatlariga, ismlar semantik va kontekstual mazmunining munosib yoki nomunosib holatlariga (badiiy asarlar tarkibida), ismlarning davr bilan bog‘liqligiga, antroponimlarning badiiy asarlarga tanlash bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratiladi. Ma‘lumki, o‘tgan asrning 60-yillarida o‘zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an‘anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra farqlanuvchi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Mana shu davrda paydo bo‘lgan yangi yo‘nalishlardan birini o‘zbek onomastikasi tashkil qiladi. O‘tmishda ham atoqli otlarga qiziqish bo‘lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo‘lishi, etnografiyasi, ma‘no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar bayon qilingan. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko‘lamda tahlil qilish o‘zbek

¹⁸ Мирзиёев.Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик- миллий ғоямизнинг пойдеворидир.Т.: Тасвир, 2021.

¹⁹ Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984. – 214 с.

filologiyasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatov va boshqalarning²⁰ tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek nomshunosligi, ayniqsa, uning toponimika, antroponimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o'zbek antroponimlarining materiallari qoniqarli ravishda to'plangani va tadqiq qilingani monografik tarzda o'rganilganini qayd etish mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, yodnomalardagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. Hozirgi vaqtda jahon tilshunosligida yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan antroposentrik yo'nalishning asosiy sohalaridan biri hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik etnografiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixolingvistika hamkorligida yuzaga keldi. Lingvomadaniyatshunoslik tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy maqsadi madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishdagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganishdan iborat. Mazkur sohaning obykti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi lisoniy birliklar hisoblanadi²¹.

O'zbek antroponimlari orasidagi o'zlashma qatlam, undagi forsha-arabcha, ruscha ismlar tahlili E.Begmatov (1965, 1986, 1994), S.I.Zinin (1972), N.A.Sharopov (1985) singari olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. O'zbek tilidagi laqablarning o'ziga xos funksional-lisoniy xususiyatlariga bag'ishlab E.Begmatov (1965), E.Qilichev (1982), Y.Ibrohimov (1986), B.Yo'ldoshev (2010) kabi olimlar ilmiy maqolalar e'lon qilganlar. O'zbek antroponimik tizimining

²⁰ Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Сатторов Ф. Ўзбек исmlарининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Сатторов Ф. Ўзбек исmlарининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантикуслубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 1998.; Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

²¹ Xudoyberganova D . O'zbek lingvomadaniyatshunosligining ustuvor vazifalari O'zbek tili va adabiyoti 2020,5-son,3-9- betlar

tarkibiy qismi bo‘lgan taxalluslar, ularning qo‘llanish xususiyatlari, turlari, matn tarkibidagi vazifasi kabi masalalarga oid B.Qoriyev (1966, 1967), Y.Is‘hoqov (1968)larning ilmiy maqolalari yaratilgan²². Keyinchalik bu muammoga bag‘ishlab T.Qorayev, R.Vohidovlarning risolalari e‘lon qilindi²³. XX asrning 90-yillariga kelib o‘zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o‘rganildi. Masalan, Sh.Yoqubov “Navoiy asarlari onomastikasi” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi, undan oldin B.Bafoev “Navoiy asarlari leksikasi” nomli monografiyasida Navoiy asarlaridagi kishi ismlari va geografik nomlarni semantik va statistik jihatdan tahlil qilgandi²⁴. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ning 4-tomida Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan barcha kishi nomlari, geografik, astronomik va boshqa nomlar, Alisher Navoiy ijodida uchragan asar nomlarining to‘la ro‘yxati berilgan²⁵. Bu davrda badiiy asarlarda qo‘llangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari, ularning tarjimai bilan bog‘liq masalalar ham o‘rganila boshlandi. O‘zbek tili antroponimik birliklarining ma‘lum qismini taxalluslar tashkil qiladi. Holbuki, E.Begmatovning bir qator asarlaridagi ayrim ma'lumotlarni va tadqiqotlarni e'tiborga olmaganda, o‘zbek tilshunosligida taxalluslar maxsus to‘planmagan va monografik tadqiq qilinmagan. Taxallus haqida adabiyotshunoslar tomonidan yozilgan ilk tadqiqot “Taxalluslar” kitobidir. Taxalluslar ijtimoiy-siyosiy, adabiyotshunoslik, tilshunoslik fanlari tomonidan to‘planishi va o‘rganilishi mumkin. Taxalluslarni ijtimoiy-siyosiy maqsadda o‘rganish taxallus egasining siyosiy maqsadlarini bilish, taxallus egasining qanday g‘oyaviy guruhga mansub ekanini aniqlashni maqsad qilib oladi. Taxallusni tilshunoslik ya‘ni onomastik aspektda o‘rganish esa ham lingvistik, ham badiiy-estetik xulosalar chiqarishga

²² Ўзбек антропонимикасига доир юқорида таъкидланган барча ишлар рўйхати куйидаги библиографияда келтирилган: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 96-124-бетлар.

²³ Қораев Т., Воҳидов Р. Адабий тахаллуслар ҳақида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 60 бет.

²⁴ Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. – Тошкент, 1994, 3-20-бетлар; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983, 37-44-бетлар.

²⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1985, 268-343-бетлар

imkon beradi. Taxalluslarni to‘plash va tartiblash ba’zi taxallusdosh adiblarni aniqlashga yordam beradi. Bu ayniqsa, 1920- yillar o‘zbek matbuotchiligi sahifalaridan 430 taxallusni to‘plagan B.Qoriyev hamda Y.Isoqovlarning maqolalarida yorqin ko‘rinadi. Taxallus tanlashda taxallus egasining xohishi bilan bog‘liq bo‘lgan uslubiy ma’no yotadi. Bu jihatdan taxalluslar badiiy asar obrazlari nomiga o‘xshab ketadi va yozuvchi ijodida, ayniqsa, hajviy badiiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Shu sababli adabiyotshunoslarning yozuvchi yoki shoir taxallusi sirini, motivini ochishga harakat qilishlari ana shu badiiy vositalarning mohiyatini bilishga qaratilgan bo‘ladi.

Taxalluslarning bir turi adabiy taxalluslardir. Adabiy taxalluslarni davr nuqtai nazaridan tarixiy va zamonaviy turlarga ajratish mumkin. Tarixiy-adabiy taxalluslar o‘tmishda ijod qilgan shoir va adiblarning taxalluslaridir. Zamonaviy adabiy taxalluslar yaqin o‘tgan yillardagi yoki hozirgi shoir va adiblarning taxallusidir. Taxalluslarning bu ikki turi vazifasi, mohiyati, nuqtai nazaridan umumiylik kasb etsada, lug‘aviy asosi, shakli, tarixiy-etimologik manbasi jihatidan birmuncha o‘ziga xos farqli xususiyatlarga ega²⁶.

O‘zbek antroponimlarini tarixan o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan yanada rivojlana boshladi. E.Begmatovning “Antroponimiyadagi qadimiy turkiy elementlar” maqolasidan so‘ng muallifining qadimiy turkiy yodnomalaridagi antroponimlarga bag‘ishlangan maqolalari e‘lon qilindi. Shuningdek, taniqli navoiyshunos olimlar A. Rustamov va B. Vafoyevlar ham o‘z ishlarida ba’zi ismlarining ma’no xususiyatlariga to‘xtalib o‘tdilar. Sh.Yoqubovning “Navoiy asarlari onomastikasi” nomli tadqiqotida ham bir qator ismlar diaxronik planda tahlil qilindi.

Antroponimlar tarixini o‘rganish bilan bog‘liq masalalardan biri “Tarixiy antroponimlar” tushunchasini aniqlashtirish va tarixiy nomalar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasidir. Bunday nomlar tilda paydo bo‘lish davri va holatiga ko‘ra, tarixiy bo‘lsa-da, qo‘llanishi, hayotiylikiga

²⁶ Uluqov N., Nizomova Sh. Ayrim taxalluslarning leksik semantik tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti 2020N2 83-86

ko'ra zamonaviy hamdir. Demak, bunday nomalar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi Ulug'bek, Tangriberdi, O'lmas, Temur, Chingiz kabi ismlar qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir.

Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor asarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, "o'lik" ismlar qatoriga kiritadi. Antroponimlar turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek antroponimlarini tarixiy yodnomalardagi xususiyatlariga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumturkiy davrga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (VI-XIV asrlar);

2. Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (XV asr va keyingi davrlar).

Antroponimlarni tahlil qilishda bag'ishlov ismlar ham alohida o'rin tutadi. Chunki bag'ishlov ismlarning yuzaga kelishi qadimiy tarix bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum bir xalqning e'tiqodi va ishonchi, magik qarashlariga borib taqaladi. Bu borada tadqiqot olib borgan Sabohat Kenjayeva bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida yozilgan maqolasida o'zbek antroponimiyasining o'ziga xos guruhlari mavjud bo'lib, ularni uchga bo'ladi:

- 1) Ism bag'ishlovlar (memorativlar);
- 2) tasviriy ismlar (deskriptivlar);
- 3) ism-istaklar (dezirativlar)²⁷ kabi.

Uning fikricha, ism bag'ishlovlarning yaratilishi o'zbek onomastikasining qadimgi usullaridan biri hisoblanadi. Chunki o'zbek xalqi, balki butun dunyo xalqlari ham, qadim tarixdan to bugungi kungacha turli xil dinlarga, xudolarga, totemistik, fetishizm va ko'plab urf-odatlariga amal qilgan. Bunday diniy manbalarga ishonish, ularga bo'lgan hurmat o'zbek antroponimiyasida hozirgacha

²⁷ Kenjayeva S. Bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida. O'zbek tili va adabiyoti, 2011. 2-son. –B.91.

saqlanib qolgan. Tarixdan farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o'zlari ishongan iloh, e'tiqod etgan narsalar nomi bilan bog'liq tushunchalar ism qilib berilishi natijasida bag'ishlov ismlari paydo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham ism berilishida bunday ishonch va e'tiqodlar muhim o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun Xudo tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat deb qaraladi.

Antroponimlarning ba'zi turlari mavjudki, ularda tarixiylikdan, tarixan bildirgan ma'nosi bilan bog'langan motivlaridan tashqari ma'lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko'plab uchraydi. Bunda ma'lum nomli tarixiy shaxslar o'z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin, kerak bo'lsa ishonish, o'sha shaxsga nisbatan havasni, e'tiqodni uyg'ota oladi. Natijada shaxsning vafot etishi yoki uning tiriklik paytidan boshlab, shaxsning xususiyatlari uning ismiga ko'chib o'tadi va xalq bunday farzandlari ko'payishini xohlaydi. Asta sekinlik bilan bu nomlarni farzandlarga qo'yishda antroponimning oldingi ma'nosiga qo'shimcha ravishda ma'lum shaxsning siymosi ham qo'shiladi. O'zbek antroponimlarining tarkibida bunday ismlarni juda ko'plab uchratish mumkin. Bunda ismlar sirasiga xalqni dushmanlardan ozod etgan, xalq g'amini tushunib, xalqning og'irini yengillashiga o'z hissasini qo'shgan, butun umr vatan ravnaqi uchun yashagan, ilmu fanda butun dunyoga dong'i yoyilgan olim bo'lgan va faqat yaxshi fazilatlarini ko'rsata olgan shaxslargina bunday baxtga muyassar bo'lgan. Bunday shaxslar bilan bog'liq antroponimlar qatoriga quyidagi antroponimlarni ham kiritish mumkin: Madaminbek (ar. Muhammad (sav)ning sodiq, ishonchli, sadoqatli odamidir. Amin – Muhammad (sav) ning sifatlaridan biri deb belgilangan bo'lsa-da, lekin xalqimizning orasida xuddi shu ma'nolardan tashqari XX asr boshlaridagi o'zbek xalqining ozodligi uchun jonini fido qilib olishgan qo'rboshi Madaminbek antroponimida motivlanish holatini kuzatamiz; Alisher (ar.-ft.) – sherdek jasur, dovyurak bo'lib o'ssin va Ali qo'llab yursin degan ma'noni ifodalagan bo'lsa-da, bundan tashqari, bu ismni hozirgi kunda ota-onalarimiz bola tug'ilganda adabiyotimizning yuksak cho'qqilarga olib chiqqan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga bog'lab qo'yish hollarini ham kuzatishimiz mumkin;

Navoiy (ft.) – kuyga, qo‘shiqqa mansub, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyga nisbat berilgan ism. Buyuk shoir Navoiyga o‘xshasin, Navoiydek shuhrat topsin deb orzu qilingan; *Chingiz* (mo‘g‘ – buyuk, qudratli. Mashhur jahongir Chingizxon nomiga nisbat berilgan ism). *Shohruh* (ft. – viqorli, kelishgan; chiroyli, zebo yoki shaxmatdagi shoh ruhi. Rivoyatga ko‘ra, Temur shaxmat o‘ynab o‘tirganida o‘g‘il tug‘ilganini eshitadi va unga Shohruh deb nom beradi), *Bobur/Bobir* ((ar.) – arslon, yo‘lbars; ulug‘, ulkan, buyuk kabi ma‘nolari bilan birga, bu antroponimning Zahiriddin Muhammad Boburning ismiga bog‘liqligi ham motivlovchi vazifasida kelishi mumkin), *Ulug‘bek*, *A.Temur*, *Jaloliddin*, *Mashrab*, *Yassaviy*, *Ibn Sino*, *Behzod*, *Mironshoh*, *Temur Malik* kabi antroponimlarni ham ota-ona o‘z farzandiga qo‘yishda, albatta, ushbu ism bilan atalgan shaxslarning faoliyatiga e‘tibor qaratmasdan iloji yo‘q deb o‘ylaymiz. Shunday ekan, hozirgi kunda *Temur/Temir*, *Temurbek/Temirbek* ismlarini qo‘yishda nominatorlar bu antroponimning temirdek mustahkam, mahkam, ya‘ni balo-qazolarga bardoshli, umri uzoq bola singari ma‘nolaridan tashqari nominatorlar ism tanlashda Amir Temur timsolini hisobga olib, ana shu tarixiy shaxsga o‘xshash inson bo‘lsin deb, Temur ismini qo‘yishadi.

Ba‘zi ismlarning yaratilishi yoki tanlanishi ko‘p hollarda o‘sha nomni tanlagan yoki ijod qilgan kishilar (nominator) uchungina ma‘lum bo‘ladi. Bunday ismlarning kengroq doirada, umummilliy doirada ma‘lum va tushunarli bo‘lishi ushbu nomning kengroq tarqalishi, umumudum darajasiga ko‘tarilishi bilan bog‘liqdir. Lekin ba‘zi ismlar bir oila doirasida va bir martagina qo‘llanilib keyinchalik qo‘llanilishdan chiqib ketishi ham mumkin.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

1. Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika* kabi turlarga bo'linadi. Shulardan biri bo'lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi;

2. Har qanday tildagi onomastik birliklar bir davrning mahsuli emas, balki tilda azal-azaldan shu kunga qadar yuzaga kelgan lisoniy hodisadir. O'zbek onomastikasida onomastik birliklar tarixiylik davriy mansubligiga ko'ra ikki katta guruhga bo'lib tadqiq etilmoqda: 1. Tarixiy nomlar; 2. Yangi zamonaviy nomlar. Shunga ko'ra, tarixiy nomlarni atash uchun tilshunoslikda shu terminlardan foydalanilmoqda;

3. Onomastika va uning bir tarmog'i bo'lgan antroponimlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda motivatsiyaning mazmun mohiyatiga, antroponim so'zining mazmuniy tuzilishiga, antroponimlarning etimologiyasiga, atoqli otlarning strukturasi, ismlarning yuzaga kelishidagi sabab, ehtiyoj, istak-orzu va boshqa xususiyatlariga, ismlar semantik va kontekstual mazmunining munosib yoki nomunosib holatlariga (badiiy asarlar tarkibida), ismlarning davr bilan bog'liqligiga oydinlik kiritish asosiy vazifa hisoblanadi;

4. Antroponimlarning ba'zi turlari mavjudki, ularda tarixiylikdan, tarixan bildirgan ma'nosi bilan bog'langan motivlaridan tashqari ma'lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko'plab uchraydi. Bunda ma'lum nomli tarixiy shaxslar o'z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin, kerak bo'lsa ishonish, o'sha shaxsga nisbatan havasni, e'tiqodni uyg'ota oladi.

II BOB. ANTROPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari

O‘zbek tili antroponimiyasining lug‘aviy asoslarini aniqlab, belgilash murakkab jarayon bo‘lganligi sababli, nomshunoslikning bu jihati ko‘plab tadqiqotlarda izchil tahlil ostiga olinmagan. Negaki, ism asosida yotgan leksemani aniqlash shu ismning ma’nosini hamda motivini belgilash degani emas, chunki ismlar bilan ishlash, apellyativlarning ma’no va nominatsiyasida tamoman yangi vazifalar yuzaga keladi. Masalan, “*Arslon*” ismi hayvon nomini eslatib tursa-da, u ism sifatida “*mardlik, dovyuraklik*” ma’nolarini anglatadi. Qadimda esa bu ism totemistik tasavvurni ifodalagan. Davrlar o‘tishi bilan ismlar semantikasi o‘zgarib boradi. Biror so‘zni ism sifatida tanlash so‘zning moyilligiga emas, odamlarning diniy, ma’naviy e’tiqodlariga, etnik rasm-rusumlar, an’anaviy udumlarga bog‘liq ehtiyojlar sababidan amalga oshadi. Hozirgi o‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan ismlarda o‘zbek aholisining istak va motivlarigina aks etibgina qolmay, fors-tojik hamda arabcha nomlar ham mavjud. Bu ismlarga xos motivlar o‘sha tillarda qolgan. Masalan, Muso, Iso, Is’hoq ismlarining motivlari qadimiy yahudiy tilida, Abdusamad, Abduvohid, Abdulla ismlari motivi arab tilida Binobar, Baxshanda, Gavharshod ismlari motivi esa fors-tojik tilida qolgan. O‘zbek ismlari boshqa tillardan kirib kelgan nomlar asosida qo‘yilgan ismlarni asrlar davomida estetik tasavvur hamda didiga mos kelgani uchun o‘zlashtirgan. O‘zbek tilida hozir urf bo‘lgan ismlarning aksariyati o‘zga tillardan kirgan nomlar hisoblanadi. Birgina misol, Adliya vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilda tug‘ilgan 24365 nafar o‘g‘il bolalarga *Muhammadali* ismi qo‘yilgan. O‘ntalikda, shuningdek, *Mustafo* (22800), *Abdulloh* (18116), *Muhammad* (17025), *Muhammadyusuf* (13774), *Muhammadamin* (12450), *Nurmuhammad* (9017), *Muhammadjon* (8843), *Imronbek* (8591) va *Muhammadziyo* (8135). Qizlarga esa 2023-yilda eng ko‘p *Soliha* ismi qo‘yilgan (24365). Kuchli o‘ntalikdan Yasmina (19911), Muslima (15918), Xadicha (10759), Imona (10310), Shukrona (9330), Sumayya (9279), Ifora (7586), Sa’diya

(6639) va Mubina (6558) o‘rin olgan. Ismlar ro‘yxatida ko‘rishimiz mumkinki, kuchli o‘nlikdagi ismlarning deyarli barchasi o‘zlashma qatlamga mansubdir. *Muhammadali va Soliha* ismi 2015-yildan buyon eng ko‘p qo‘yilgan ism deyiladi, Adliya vazirligining Gazeta.uzga bergan ma‘lumotida²⁸.

Ismga asos qilib olingan apellyativ genetik jihatdan qaysi xalq tiliga tegishli bo‘lsa o‘sha xalqning ijodi deyish ham doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Negaki, ko‘plab ismlar o‘zbek tilida boshqa tillardan kirib kelgan turdosh leksemalar asosida yasalgan ismlar bo‘lib aynan o‘sha tillarda so‘zlashuvchi xalqlarda antroponim sifatida ishlatilmaydi. Masalan, *Kotiba, Maktuba, Madaniyat, Murod, Mahfirat* ismlari arabcha leksemalar asosida, *Osuda, Eshonboy, Xolbibi* ismlari esa fors-tojik leksemalari asosida yuzaga kelgan o‘zbek antroponimlaridir. Ammo, shuni ta‘kidlash joizki, o‘zbek tilida istifoda etiladigan, o‘zbek kishisining nomi bo‘lgan har qanday ism o‘zbek antroponimiyasining lug‘aviy boyligidir. Chunki, o‘zga tillardan o‘zlashgan ismlar asrlar davomida o‘zbek aholisining nomiga aylangan. Ota-onalar bu nomlarni qaysi tildan kirganini o‘ylab o‘tirmasdan o‘z maqsadlari va didiga mos tushsa, bolaga ism sifatida qo‘yavergan.

Onomastika til va inson o‘rtasidagi madaniy-ma‘naviy, etikaviy, etnik munosabatlarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga boy material beradi. Masalan, antroponimik birliklarda antroposentrik usul uchun material bera oladigan xususiyatlar quyidagilarda ko‘rinadi.

Birinchi, ism, laqab, taxalluslar biror alohida olingan shaxsni boshqa shaxslardan ajratish, farqlash ehtiyoji tufayli yaratilgan. Bu xususiyat antroponimlarning asosiy vazifasi bo‘lsa-da, qayd qilingan onomastik birliklarning har biri asosida inson xohishi va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan rasm-rusumlar yotadi.

Ikkinchi, antroponimlarni asrlar davomida shaxslar, xalq ijod qilgan va ularni o‘zini nomlash uchun yaratgan. Demak, antroponimlarning genezisida insonlarning ehtiyoji, faoliyati va ijodi yotadi.

²⁸ Gazeta.uz // Jamiyat. 05.01.2024

Uchinchidan, antroponimlarda qadimda yashagan kishilarning etnik, madaniy-ma'naviy qarashlari hamda diniy e'tiqodlari saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Bu hol ismlarning genetik asosi va motivida qadimiy totemistik, animistik, fetishistik tasavvurlar, e'tiqodlar yotgan nomlarda aniq ko'rinadi. Bu tasavvurlar markazida ham inson, ham u yashagan tarixiy davrga xos rasm-odatlar, orzu-umidlar o'z ifodasini topgan.

To'rtinchidan, antroponimlarda har qanday ismning bolaga qo'yilish motivida o'tmishda yashagan ajdodlarimizning urug'chilik, qabilachilik davriga xos, shuningdek, elat va xalq bo'lib shakllangan tarixiy bosqichlarda amal qilgan madaniy- maishiy, ijtimoiy- iqtisodiy turmushiga oid e'tiqodlari o'z ifodasini topgan. Masalan, o'zbeklarning etnik nomlarida qabilachilik davridagi ko'chmanchilik va chorvachilik faoliyati izlari saqlanib qolgan bo'lib, ismlar ko'proq uy hayvonlari nomidan tanlangan. (*Qo'ziboy, Qo'chqorboy, Qulunboy, Toyliboy, Taqaboy...*), urug' va qabila nomlariga esa urug' va qabilalarning tamg'alari asos bo'lgan. (*Sirg'ali, O'roqboy, Bolg'ali, Qarg'aoyoqli, Cho'michli*). Keyinchalik dehqonchilikka o'tilgan davrlardagi ismlar turkumini shu kasbga oid nomlar - *Ko'lboy, Anhor, Qo'shchi*, dehqonchilik kasbini esga soluvchi o'simlik nomlari - *Arpaboy, Burchoq, Nihola, Ziragul, Sabzigul*; daraxt nomlari - *Olmaboy, Anjir, Anora, Zaytuna* kabilar tashkil qilgan. Shuningdek, ular bunday nomlar ajdodlarning xo'jalik faoliyatida, ular shug'ullangan kasb-korlar nomida yaxshi saqlanib qolgan: *Ovchiboy, Suvchiboy, Dehqonboy, Ipakchi, Sholikor, Najjora* va hokazo. Ayniqsa, endilikda eskirgan, til tarixi mulkiga aylangan kasb-korlar nomlari asosidagi ismlar diqqatga molikdir: *Jilovdor, Sariybon, Choparboy, Qo'shchi, Bazzoz (charm buyumlar sotuvchi), Shotir (jilovdorlar)* ismlari qimmatli tarixiy- lisoniy merosdir.

Ko'p yillar olib borilgan kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, deyarli barcha ismlarning yaratilishi motivida insonning, ya'ni bolaga ism qo'yuvchilarning (nominatorlarning) istak, umid va orzulari o'z ifodasini topgan.

1. Avvalo, nominatorlar bolaning sog'-salomat ulg'ayishini istaydi.

2. Nominatorlar bolaning ba'zi kasalliklardan forig' bo'lishi va sog'ayib ketishini istashadi : *Tuzaloy, So'nmasjon, Yovqochdi, Tektur.*

3. Nominatorlar bolaning har qanday kasalliklarni yenga oladigan irodali, joni qattiq bo'lishini istashadi va ismni mustahkam, mahkam turadigan narsa nomidan tanlashadi: *Boltaboy, Temir, Toshbolta, Teshaboy, Cho'yanboy.*

4. Ism qo'yuvchilar bolaga munosib ism berish orqali bolani ko'z tegishdan asramoqchi bo'lishadi va ismini salbiy, xunuk ma'noli so'zlardan, arziyas narsalar nomidan hosil qilishadi: *Yomon, Supurgibek, Tuproqboy, Sarimsoq.*

5. Ism qo'yuvchilar oiladagi oldingi bolalarning kasallanishi va o'limiga sababchi bo'lgan" chaqaloq dushmanlari, yovuz kuchlar" dan himoya qilish maqsadida navbatda tug'ilgan bolaga uning dushmanlarini chalg'ituvchi, adashtiruvchi ismlar berishadi: *Adash, Aldaboy, Adashali, Istamas, Yanglishboy.*

6. Bir qator ismlarda nominatorlarning bola omon-eson bo'lib, akaopalariga oilaning boshqa a'zolariga qo'shilib, hamdam bo'lib yurishlarini xohlash orzusi mujassamlashgan: *Birlash, Yondosh, Ilash, Ergashjon, Eshbo'lsin*²⁹.

O'zbek antroponimlarini tarixan o'rganish XX asr ikkinchi yarmidan yanada rivojlana boshladi. E.Begmatovning "Antroponimiyadagi qadimiy turkiy elementlar" maqolasidan so'ng muallifning qadimiy turkiy yodnomalaridagi antroponimlarga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilindi. Shuningdek, taniqli Navoiyshunos olimlar Alibek Rustamov va Bahrom Vafoyevlar ham o'z ishlarida ba'zi ismlarining ma'no xususiyatlariga to'xtalib o'tdilar.

Rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o'smir surunkali kasal bo'laversa, nomi (xususan, Alloh, payg'ambar, avliyo yoki umuman, burjlar nomi bilan atalgan bo'lsa, nomni ko'tarolmadi deb hisoblanib) qaytariladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo'shaloq nom (bir rasmiy, bir evfemik atama)ga ega bo'lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqlovni nom sifatida faollashib ketadi:

²⁹ Ernst Begmatov o'zbek tili va adabiyoti 2013 n3 35-39-bet

1. Oilada bola turavermasa, tugʻilib oʻlaversa, navbatdagi tugʻilgan chaqaloqqa, oʻgʻil-qizligidan qatʻiy nazar, *Oʻlmas, Tursun, Turgʻun, Umrzoq, Sotiboldi, Xudoyberdi, Yashar, Turdiboy, Toshtemir, Boʻri, Arslon* kabi baloqazodan himoyalovchi, asrovchi, yomon koʻzdan saqlovchi, yovuz ruhlarni chalgʻituvchi ot yoki evfemik atamalar qoʻyiladi³⁰.

2. Ayrim sotsial qatlam (masalan, shoirlar) maʼlum maqsad va niyat bilan oʻzlariga taxallus tanlaydilar yoki laqab orttiradilar. Bu taxallus yoki laqab bora-bora faollashib, rasmiy atamaga aylanadi. Chaqaloqlikdagi nomi kishilar xotirasidan uzoqlashadi. Hozirgi koʻpgina yoshlar *Ulugʻbek, Muqimiy, Habibiy, Chustiy, Oybek, Uygʻunlarning* asl nomlarini bilmaydilar. Bundan qatʻiy nazar, taxallus va laqablar muomala madaniyati rivojiga evfemik nutq taraqqiyotiga hissa boʻlib qoʻshiladi³¹.

Oʻzbek ismlari orasida "asrovchi ismlar"ni tarixchi Sh.Oʻljayeva quyidagi guruhlarga ajratadi. Ularning ayrimlari quyidagicha:

Sogʻlik, uzoq umr tilashini ifoda etuvchi ismlar: *Tursun, Turdi, Toʻxtasin, Oʻlmas, Yursin, Omonturdi, Turgʻun, Turgʻunoy, Ergash, Yoʻldosh* kabi;

Turli kasalliklarni yengishi, chidamli, irodali, mustahkam boʻlib oʻsishini orzu qilib qoʻyilgan ismlar: *Tosh, Toshboy, Toshxon, Temur, Temura, Metinboy, Poʻlat, Choʻyonboy, Qilichboy, Xanjara, Halqonboy, Teshaboy, Boltaboy, Mahkam, Mahkamoy, Berk, Berkinoy* va boshqalar;

Yashovchanlik, barhayotlik, chidamlilik, uzoq umr ramzi boʻlmish daraxtlar, narsalar nomidan yasalgan ismlar: *Chinor, Chinora, Sadaboy, Archaboy, Yovshan* va hokazo;

Yoqimsizlik, noxushlik, achchiqlik ramzi hisoblanuvchi narsalar, oʻsimliklar nomidan yasalgan ismlar: *Sarimsoq, Soʻgʻonboy, Piyozbek* va shular kabi. Mana shunday ismlar qoʻyilsa chaqaloqning dushmani, yovuz kuchlar bolaga yaqinlashmaydi, undan nari ketadi deb hisoblashgan.

³⁰ Бегматов Э.А. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. 74-75 Б.; Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966.

³¹ Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. 27 Б.

2.2. Tarkibi diniy komponentlarga asoslangan ismlar semantikasi

Antroponimlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri "Tarixiy antroponimlar" tushunchasini aniqlashtirish va tarixiy nomalar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasidir. Bunday nomlar tilda paydo bo'lish davri va holatiga ko'ra tarixiy bo'lsa-da, qo'llanishi, hayotiylikiga ko'ra zamonaviy hamdir. Demak, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi *Ulug'bek, Tangriberdi, O'lmas, Temur, Chingiz* kabi ismlar qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir. Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor asarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, "o'lik" ismlar qatoriga kiritadi. Antroponimlar turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek antroponimlarini tarixiy yodnomalardagi xususiyatlariga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumturkiy davrga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (VI-XIV asrlar);
2. Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (XV asr va keyingi davrlar)

Ilmiy tafakkur tarzi insoniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Har qanday taraqqiyot unga suyanadi va uning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Biroq rivojlanish bosqichlarida, insoniyat ilmiy tafakkur tarziga yetib kelgunga qadar mifologik, diniy, falsafiy tafakkur tarzini bosib o'tgan. Rivojlanish bosqichlaridagi har bir qadam (mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash) insoniyatning tafakkur tarzida o'z izini qoldirgan. Bu jarayonni har bir sohada bo'lgani kabi antroponimlarda ham kuzatish mumkin. Hatto, antroponimlarda tafakkur tarzidagi bu uzoq taraqqiyot yo'li boshqa sohalarga qaraganda, chuqurroq o'z izini qoldirgan. Antroponimlardagi mifologik dunyoqarash izlari magik qarashlar bilan bog'liq motivlarda o'z aksini topgan. Diniy

dunyoqarash bilan bog‘liq tafakkur tarzi esa antroponimlarda diniy motivatsiya bilan bog‘liq holda aks etgan.

O‘zbek antroponimlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ismlar, barcha turkiy xalqlarda bo‘lgani kabi, dastlab tabiat hodisalari bilan bog‘liq holda magik motivlar (mifologik dunyoqarash) asosida tanlangan. Keyinchalik diniy dunyoqarashning yuzaga kelishi esa diniy motivatsiya bilan bog‘liq ismlar tanlanishiga olib kelgan. Bu xalqning e‘tiqodi bilan bog‘liq holda rivojlangan. Islom dini va qur‘oni karim ta‘sirida yaratilgan adabiy yodgorliklar esa bu jarayonning kengayishiga kuchli turtki bergan.

O‘zbek xalqi tarixda zardushtiylik, buddaviylik va islom dinlariga e‘tiqod qilgan. Bu esa xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzida o‘z izini qoldirgan. Bu o‘z navbatida antroponimlarda aks etgan. Xalq e‘tiqodida eng so‘nggi din sifatida islom dini alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun antroponimlarda islom dini bilan bog‘liq motivatsiya keng o‘rin tutadi.

Ma‘lumki, islomda har bir ish Olloh nomi bilan boshlanadi. Adabiy yodgorliklarda Olloh so‘zi hamda 99 ismdan iborat “*Asmaul husna*” (go‘zal ismlar) ko‘p va takror qo‘llanilgan. Ammo Ollohning sifatlarini aks ettiruvchi “*Asmaul husna*” bo‘yicha ma‘lum ishlar qilinganligi hamda ular nomshunoslikning teonimlar guruhiga mansubdir. Tadqiqotda diniy antroponimlar o‘z navbatida quyidagicha guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilindi:

1) allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar;

2) payg‘ambarlarning ismlari, Muhammad (s.a.v)ning ajdod-avlodlari, xalifalar va boshqa diniy tushuncha bilan aloqador antroponimlar.

Bu paradigma ham o‘z navbatida ichki bo‘linishlarga ega:

a) Allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar: *Abdurahmon* (ar.o‘ta mehribon va mehrlining quli, ya‘ni Xudoning quli), *Abdusalom* (ar.Balo-ofatlardan salomat saqlovchining, ya‘ni Ollohning quli), *Abdusattor* (ar. kechiruvchining va himoya qiluvchining, ya‘ni Ollohning quli), *Hamidulla* (ar. Allohning madh-u sanosi, maqtovi, shon-shavkati yoki Allohning

maqtoviga loyiq bandasi), *Rahmon* (O'ta mehribon), *Malik* (Podishoh), *Xoliq* (Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi), *Basir* (Hamma mahfiy va oshkora narsalarni ko'ruvchi), *Karim* (karamli, saxovatli, kechirimli), *Jalil* (barcha sifatleri mukammal, ulug' zot), *Bois* (payg'ambarlar yuboruvchi, o'lgandan keyin qayta tiriltiruvchi), *Rashid* (barcha ish va tadbirlari to'g'ri chiquvchi) va shu kabilar.

Yuqoridagi antroponimlar hozirgi kunda ma'lum o'zgarishlar bilan o'zbek antroponimlarini boyitadi. Bunda Ollohning nomlariga *Abdu-*, *-bek*, *-jon*, *-berdi* va boshqa antroponimlarning hosil qilishda ishtirok etuvchi morfemalarni qo'shish orqali yangi ismlar (antroponimlar) hosil qilinadi. Ya'ni hozirda qo'yilayotgan *Abdurashid*, *Abdumalik*, *Jalilbek*, *Karimberdi* va boshqa antroponimlar uchun Ollohning nomlari, nominatorning diniy qarashlari motiv vazifasini bajaradi. Dastlab bunday antroponimlarning bolaga qo'yilishida ota-onaning diniy qarashlari yetakchi motiv bo'lgan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan bu antroponimlarning allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar asl ma'nosidan uzoqlashib, bunday ism qo'yish milliy an'ana tusini olgan.

b) Payg'ambarlarning nomlari va sifatlarini bildiruvchi so'zlardan yasalgan ismlar: Muhammad(s.a.v), *Idris* (qad.yah.–aynan: “o'quvchi, o'rganuvchi”, tirishqoq, bilimdon. Idris payg'ambar o'qishda tirishqoqligi tufayli mana shunday nom (laqab) olgan), *Ibrohim* (qad.yah. – “Bibliya”dagi Abraam ismining arabcha shakli bo'lib, “xalqlar otasi” ma'nosini anglatadi. Rivoyatlarga ko'ra, Ibrohimning *Is'hoq* va *Ismoil* degan o'g'illari bo'lgan. Is'hoqdan yahudiylar, Ismoildan esa arablar tarqalgan), *Iso* (qad. Yah. – Allohning tuhfasini, ehsoni; lutf-u karami; Allohning ko'magi yoki Allohning yaqini. *Iso* – qad.yah. Jexogua, Isus (Xristos) nomining arabcha shaklidir), *Ya'qub* (yah. – o'kcha, tovon, izidan boruvchi, ergashuvchi. Bibliyadagi afsonaga ko'ra, egizak bola tug'ilgan bo'lib, ikkinchisi birinchi tug'ilgan akasidan qolib ketmaslik uchun uning tovonidan ushlab yurgan emish. Bu nom payg'ambarlardan biri ismi (Yakov)ning arabcha shaklidir), *Muso*, *Yunus*; *Ahmad* (ar. – Allohga ko'p hamdu-sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovga, olqishga sazovor. Bu nom Muhammad(s.a.v)ning sifatlaridan biridir), *Hamid*, *Mahmud*, *Rasul*, *Nabi* (y), *Komil*, *Xabibulla*, *Xabib*, *Najibulla*, *Bashir* (ar. –

xushxabar keltiruvchi; baxt-saodat elchisi. Bashir – Muhammad (s.a.v)ning sifatlaridan biridir), *Mubojir* va b.q.

Payg‘ambar leksemasi fors-tojik tilida yasama so‘z hisoblanadi. Uning birinchi qismi “payg‘am ” (ft.) – “xabar” ma’nosini, ikkinchi komponenti - “bar” (eltmoq fe’ning hozirgi zamon asosi) dan iboratdir. Diniy adabiyotlarda, xususan, Qur’oni Karim va hadislarda “payg‘ambar” ma’nosida nabi va rasul so‘zlari ishlatilgan. Har ikkala so‘z ham arabcha bo‘lib, nabi - “ilohiy xabar keltiruvchi, xabarchi”; “rasul” - “elchi, Ollohning elchisi” ma’nolarini bildiradi. Ba’zi tarixiy lug‘atlarda “rasul” ilohiy kitob sohiblariga nisbatan ham ishlatilgan. Hozirda bu leksemaga -qul (motivlovchi³²) morfemasini qo‘shish orqali yangi *Payg‘ambarqul* antroponimi yasaladi. Bu antroponim semantikasi quyidagicha izohlanadi: Payg‘ambarqul (ft.) – xabar beruvchining, ogoh qiluvchining quli, kishilarni din yo‘liga soluvchining quli.

Yusuf *Ya‘qub* payg‘ambarning o‘n birinchi o‘g‘li bo‘lib, eng ko‘p uchraydigan ism hisoblanadi. Diniy adabiyotlardagi Yusuf haqidagi qissa “Tavrot” orqali G‘arb, Qur’oni Karim orqali Sharq, adabiyotlariga yoyiladi³³. Durbek va boshqa shoirlarning “Yusuf va Zulayho” ismli dostonlar, qissalar yaratishlariga asos bo‘ldi. Diniy va badiiy asarlarda Yusufning chiroyi, sabr-toqati, kamtarinligi va Ollohga sadoqati keng aks ettiriladi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Yusuf ismini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek chiroyli, Ollohga sadoqatli bo‘lishini orzu qiladi.

Manbalarda *Ayyub* ibodat va sabr qiluvchi payg‘ambar sifatida talqin qilinadi. Shu xususiyati uchun Ayyub “Sabr” laqabiga sazovor bo‘ladi. Bu so‘z keyinchalik kishi ismiga aylanadi (Sabr-Sobir). Bu antroponimning hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Biroq Sobir ismini qo‘yishda, so‘zning lug‘aviy ma’nosi ko‘proq motiv bo‘lib qoladi.

³² Nurmonov A. “Tanlangan asarlar”. III jild. -T., “Akademnashr”, 2012. –B.165.

³³ Карсмагов Х. Куръон ва узбек адабиёти. -Тошкент: Фан, 1993, 64-бет. Пиотровский М.Б. Кораничесюч: сказание. -Москва: Наука. 1991. –С.126.

Muso yahudiylar payg‘ambari nomi diniy adabiyotlarda, xususan, Qur‘oni Karimda tasvirlanishicha, munajjimlar Fir‘avnga: “Sening mulk-u davlating Bani Isroil qavmidan tug‘iladigan bir bola qo‘lida xarob bo‘ladi”, – deyishgach, u o‘sha qavmdan dunyoga kelgan har bir o‘g‘il bolani qatl qilishga buyruq beradi. Muso tug‘ilgach, onasiga g‘oyibdan farmon keladi va u chaqalog‘ini avaylab sandiqqa solib, Nil daryosiga qo‘yib yuboradi. Daryo sohilida o‘tirgan Fir‘avnning xotini sandiqni ko‘rib qoladi va odamlariga uni daryodan olib chiqishni buyuradi. Sandiqdagi chaqaloqni Fir‘avnning xotini o‘ziga farzand qilib oladi va unga “Muse” deb ism qo‘yadi. A.Navoiy “Tarixi anbiyo hukamo” da bu voqeani tasvirlab yozadi: Osiya anga *Muso* ot qo‘ydiki, ibriy tili bilan ma’nisi sarv daraxtdur . Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Muso ismini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek yashovchan, sarv daraxtiday tik qomatli bo‘lishini va Muso payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yladi.

Ilyos kishilarni “xavf-xatardan asrovchi” payg‘ambar sifatida ko‘rsatilgan. Lug‘atlarda Ilyos qadimiy ibriycha “Iliya” so‘zidan olinganligi hamda “mening tangrim” “tangrining qudrati, kuchi” kabi ma’nolarni anglatishi qayd etilgan. Ilyos (qad.yah.) – Allohning kuchi, qudrati yoki xalqlarning sevimlisi, kishilar qadrlovchi, e‘zozlovchi odam. Obihayot ichib Xizr kabi mangu tirik deb faraz qilinadigan payg‘ambarning nomi. Quruqda Xizr bo‘lsa, suvlikda Ilyos kishilarning madadkori, hamrohi deb hisoblandi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi, motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Ilyos ismini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek sevimli, insonlarga yordam beruvchi bo‘lishini va Ilyos payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Yahyo payg‘ambarning nomi. Bu ism qadimiy ibriy tilida “hammadan buyuk” ma’nosini anglatadi. Yahyo (yah.) – o‘ta saxiy, muruvvatli, ochiq qo‘l; yashovchi, barhayot, hayotiy yoki xushxulq, insonga do‘st. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi shu nomning ma’nolari va bu

antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Yahyo ismini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek sahiy, yashovchan, insonlarga do‘st bo‘lishini va Yahyo payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Iso diniy va ilmiy adabiyotlardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, u qadimiy yahudiycha bo‘lib, “Xudoning marhamati”, “qutqaruvchi xudovand” ma‘nolarini anglatadi. Iso (qad.yah.) – Allohning tuhfası, ehsonı; lutfu karamı; Allohning ko‘magı yoki Allohning yaqini kabi ma‘nolari mavjud. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida antroponimni shakllantiruvchi morfemalar qo‘shish orqali o‘zgarishlarga uchragan, lekin nominatorlar uchun shu nomning ma‘nolari, morfemalar anglatgan ma‘nolari va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Iso, Isoberdi, Isomiddin ismlarini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek saxiy, yashovchan, insonlarga do‘st, Isodek dinning suyanchi bo‘lishini va Iso payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Muhammad (sav) payg‘ambarning ismi. Bu antroponim bilan birga Ahmad, Mahmud, Hamid ismlari ham qo‘llaniladi. Bu to‘rtala ism ham “rahmat aytmoq” “maqtamoq” ma‘nolaridagi arabcha “hamada” so‘zidan kelib chiqqan. O‘zakdoshlik asosida yasalgan bu ismlar ma‘no jihatdan qisman farqlansa ham, lekin keyingi uchta ism Muhammad(sav)ning sifatlari ekanligini qayd etish lozim: Muhammad(sav) (ar.)–maqtovga, olqishga sazovor; *Mahmud* (ar.)–maqtalgan, maqtovga sazovor, dongdor, atoqli, Muhammad (sav)ning sifatlaridan biri; *Ahmad* (ar.) – Allohga ko‘p hamd-u sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovga, olqishga sazovor (O‘sha asar, 41- bet); Hamid (ar.) – maqtovchi, madh qiluvchi, Allohga hamd-u sano aytuvchi, shukur qiluvchi yoki hamd – issiq, qaynoq. Bu antroponimlarni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma‘nolari va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Muhammad(sav), *Ahmad*, *Mahmud*, *Hamid* ismlarini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek saxiy, insonlarga do‘st, Muhammad(sav)dek

dinning suyanchi bo‘lishini va Muhammad(sav) payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Muhammad(sav)ning qarindosh-urug‘lari ismi motiv qilib olingan antroponimlar. Muhammad (sav) ning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq nomlar diniy, badiiy, tarixiy adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Muhammad(sav)ning qarindosh-urug‘lari ismlarning asosiy qismi hozir ham faol ishlatilayotganligi sababli, ularning lug‘aviy ma’nolarini ko‘rsatib o‘tish alohida ahamiyatga ega: Abdulloh (Muhammad(sav) ning otasi) - “tangrining quli” ma’nosini ifodalaydi; Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav)ning otasi va bu antroponim Ollohning quli ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Abdulloh ismini qo‘yishda Ollohga sidqidildan xizmat qilishi va Ollohning o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Amina/Omina (Muhammad(sav)ning onasi) (ar.) – himoya qilingan, xavf-xatardan holi, omonlikda saqlanuvchi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav) ning onasi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Omina ismini qo‘yishda Muhammad (sav) ning onasi kabi inson bo‘lishini istab qo‘yishadi.

Halima (Muhammad(sav)ni emizgan ayol) (ar.) – muloyim, mehribon, rahmdil, mehrlil, shafqatli. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav)ning onasi qatori ekanligi va yuqoridagi ma’nolari motiv vazifasini o‘taydi.

Abbos (Muhammad (sav)ning tog‘asi) (ar.) – dovyurak, jangovar kabi ma’nolarni bildiradi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav) ning tog‘asi va bu antroponim yuqoridagi ma’nolari motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Abbas ismini qo‘yishda farzandini dovyurak, jangovor bo‘lishini istab qo‘yishadi.

Manbalarda ta’kidlanishicha, Muhammad (sav)ning 4 qizi va 4 o‘g‘li bo‘lganligi qayd etilgan. *Fotima* Muhammad (sav)ning kenja qizi bo‘lib, avlodlari u orqali tarqalgan. Fotima ismi arabcha: “ona ko‘krigidan ajratilgan” degan ma’noni bildiradi. Fotima Aliga turmushga chiqqach, *Zahro* (tangrining nuri) unvoniga

sazovor bo‘ladi. Keyinchalik bu unvon Fotimai Zahroga aylanadi va *Zahro*, *Zuhra* ismlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. *Zuhra* (ar.) – nur, yorqin, ravshan, Cho‘lpon yulduzi, Fotimaning sifatidir. Bu antroponimlarning hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun Muhammad (sav)ning qizi, Hazrat Alining rafiqasiligidan tashqari, farzandlari egizak tug‘ilganda qo‘yiladi va bu xususiyatlar motiv vazifasini o‘taydi.

Xalifalar, sahobalar, aziz-avliyolarning nomlari motiv qilib olingan nomlar. Bular Muhammad(sav)dan so‘ng davlatni boshqarganlarning ismlari bo‘lib, ular Muhammad(sav) payg‘ambarning diniy va dunyoviy o‘rinbosarlari hisoblangan. Muhammad(sav) payg‘ambardan keyingi to‘rt xalifa – o‘rinbosar (choryor), “xalifalar” - “podshoh,” “abbosiy” xalifalar “imom” deb atalgan.

Abu Bakr Muhammad (sav) vafotidan keyin hokimiyatni boshqargan birinchi xalifa. Bu ism ma‘nosi adabiyotlarda turlicha izohlanadi: “yosh tuya, bo‘taloq”; A.Irisov fikricha, “Abu Bakr aslida payg‘ambarimiz bilan ilk suhbat qurganlardan biri bo‘lib, tonggi namozni doimo u kishi bilan birga bajo keltirgani uchun Abu Bakr (Tong otasi) deb ataladi. Bizningcha, ism arabcha bakrdan kelib chiqqan: bakr – bo‘taloq. Tilshunos olim E.Begmatov esa quyidagicha fikr bildiradi: *Abubakr/Abubakir* (ar.) – aynan: “bo‘taloqning otasi” yoki aybsiz, gunohsizning, rostgo‘yning otasi. Ba‘zilar Abubakr ismi “Tong otasi” deb izohlaydi. Muhammad(sav)(sav) bilan birga namoz o‘qigani uchun Bakr ushbu laqabni olgan. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma‘nolari va bu antroponim payg‘ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Bakir ismini qo‘yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo‘yishadi.

Umar – xalifalik taxtiga o‘tirgan ikkinchi choryor. Bu ism arabcha “amr” “yashovchi” so‘zidan olingan. Umar yaxshini yomondan, haqni nohaqdan ajratish qobiliyatiga ega bo‘lgani uchun ham Farq ya‘ni farq qiluvchi, ayiruvchi degan nomga sazovor bo‘lgan. Ba‘zi manbalarda “ziyoratchi, hoji” deb talqin qilinadi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma‘nolari va bu antroponim payg‘ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv

vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Umar ismini qo‘yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo‘yishadi.

Usmon – ummaviylar guruhiga mansub uchinchi xalifa. Usmon ham arabcha bo‘lib, “siniqchi” (suyaklarni bitkazuvchi) degan ma’noni anglatadi. Rukaya va Ummu Kulsumga uylangani uchun “*Zunnurayn*” deb atashgan. Zunnurayn “ikki nur sohibi” degan ma’noni anglatadi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma’nolari va bu antroponim payg‘ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Usmon ismini qo‘yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo‘yishadi.

Ali – to‘rtinchi xalifa “oliy, buyuk” ma’nolarini anglatadi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra ismni Ali bo‘lsin deb payg‘ambarimiz tanlagan ekanlar. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma’nolari va bu antroponim payg‘ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Ali ismini qo‘yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo‘yishadi.

2.3. O‘zbek tilida antroponimlarning yasalishi

O‘zbek tilining lug‘aviy boyligini tashkil etuvchi komponentlardan biri bo‘lgan antroponimlar tilning tuzilish hamda yasalish qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Antroponimlarning tuzilish qoliplari antroponim uchun asos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatga ega.

Hozirgi davrda o‘zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo‘shma tuzilmali antroponimlar.

Sodda tuzilmali antroponimlar. Sodda antroponimlar ular uchun asos bo‘lgan leksemaning tuzilishiga mos kelgan va mohiyatan tub nomlardir. Masalan, To‘xta, Lola, Bo‘ta, Kumush, Anvar va b.Sodda ismlarni sodda, tub deyish, ularni bo‘g‘in

tuzilishiga ko‘ra tahlil qilish ismlarga xos emas, chunki ma’lum so‘z yaxlit holda ismga o‘tadi. Bu holat ismlarning bosh harf bilan yozilib individual tushuncha ifoda etishi bilan xarakterlanadi. O‘zlashma qatlamga mansub bo‘lgan nomlar o‘zbek tilida sodda ism sifatida qabul qilinadi.

O‘zbek tilida sodda ismlarini sodda deb qarash nisbiyligi ism bir qancha antropoformant (Antroponimik formant // antropoformant – antroponimlar yasashda ishtirok etuvchi yoki nom tarkibida formal ravishda mavjud bo‘lgan affiksial morfema) larni qabul qilishi natijasida boshqa shaklga o‘tishi bilan izohlanadi: Karimjon, Normengli, Safarboy. Shu jumladan, tuzilishiga ko‘ra sodda bo‘lgan ismlar aslida qo‘shma simning komponenti bo‘lgan nomlardir: Kamol (Kamoliddin), Safarali (Safar), Sayfi (Sayfullo), Tilov (Tilovberdi).

Antroponimlar tildagi avvaldan mavjud bo‘lgan leksemalarga tayangani uchun antroponomik birliklarni yasalmaydi deb bo‘lmaydi. Masalan, “Yo‘lchi” ismi bor, ammo “yo‘lchi ” so‘zi mavjud emas. “-chi” qo‘shimchasi yordamida yasalgan. “Sotimboy” ismi esa “sotmoq” fe’li asosida yuzaga kelgan bo‘lib, bevosita “bolani sotib olish” udumiga asoslangan holda yuzaga kelgan antroponimik birlik hisoblanadi.

E. Begmatov tasnifiga ko‘ra, apellyativ leksika (oddiy so‘z) ning ism vazifasiga o‘tishi bir necha usullarda amalga oshadi:

1. Fonetik-orfoepik usul.
2. Leksik-semantik usul.
3. Affiksatsiya usuli.
4. Sintaktik (kompozitsiya) usul³⁴.

Apellyativ leksikaning ismlarga o‘tishi so‘zga yangi ma’no kasb etishi bilan birgalikda, unga yangi vazifa ham yuklaydi. Ism unga asos vazifasini bajargan apellyativdan ijtimoiy-maishiy, diniy-aqidaviy, milliy-madaniy hamda etnografik jihatidan farqlanadi.

³⁴ Ernst Begmatov. O‘zbek tili antroponimikasi // “Fan” nashriyoti; Toshkent-2013. 218-bet.

Fonetik-orfoepik usulda ismlarning yasalishi bevosita kichraytirish-erkalash maqsadida ismlarni qisqartirish orqali yuzaga keladi. Aslida bu jarayon turli shevalarda turlicha aks etib, nutqiy iqtisod qonuniyati bilan xarakterlanadi. Masalan, o‘zbek tilining qarluq shevasida ismning oxiriga –sh(-ish) shaklida qisqartirish kuchliroq: To‘xtash (To‘xtasin), Dilash (Dilbar).

O‘zbek tilining qipchoq shevasida Ulbo‘s (Ulbo‘lsin), Toshon (Toshnazar), Mamay (Muhammadyusuf), Xolli (Xolmo‘min) va boshqa ko‘plab qisqartirishlar uchraydi.

Ismlarni qisqartirish qadimiy hodisa hisoblanadi. G‘.Abdurahmonovning maqolalaridan birida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida Sulaymon ismini So‘li shaklida qisqargani haqida yozgan edi³⁵. Bu xususiyatlar ism egasini hurmatlash hamda erkalash bilan bog‘liq. Ismlarni qisqartirish hodisasi sodda hamda qo‘shma ismlarning har ikkisiga tegishli bo‘lib, qisqarish natijasida ismning ikki yoki bir bo‘g‘ini saqlanadi. Ism bo‘g‘inlarining qisqarish sababidan fonetik hodisalar yuz beradi. Bu xususiyatlar F.Abdullayevning “Kishi otlarining qisqarish usullari” nomli maqolasida yetarlicha tahlil qilingan³⁶: “Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, qo‘shma ismning qisqargan shakli sodda ismga, sodda ismning qisqargan shakli esa bevosita yangi ism sifatida kundalik hayotda qo‘llaniladi. *Nuri (Nurinisa), Yaxshi, Yaxshim (Yaxshimurod), Mamat (Muhammadturdi)* kabi. Shuningdek, ismning qisqargan shakli ham to‘liq shakli bilan teng huquqli nom sifatida tilda yashashi mumkin: *Guli-Gulchehra, Sarvi-Sarviniso*”.

Ismning qisqargan shaklda bo‘lishini asosan og‘zaki nutqda uchratishimiz mumkin. Bir ism turli hudud va insonlar tilida birdan ortiq shaklda uchraydi: *Muham, Mamat (Muhammad)*. Ismlarni qisqartirish orqali yaxlit, alohida nom hosil qilib bo‘lmaydi. Ammo, to‘liq nomning shakily variantlari hosil bo‘ladi. Qisqartma ismlar ma’lum qonuniyat asosida qisqartirilmay, talaffuz shakli hamda uni talaffuz qilayotgan odamga bog‘liq bo‘lib tor doira vakillari tomonidan tushuniladi.

³⁵ Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili fonetikasi tarixidan// “O‘zbek tili va adabiyoti”. 1963-yil 2-son. 24-bet

³⁶ Abdullayev F. Kishi otlarining qisqarish usullari// “O‘zbek tili va adabiyoti”. 1960-yil 3-son. 34-39-betlar

Leksik-semantik yasallashda apellyativlar ism vazifasiga tayyor holda transnominatsiya usulida ko'chadi. Bu usulda apellyativ ismga ko'char ekan, onomastik sathda u hech qanday o'zgarishga uchramaydi, to'g'ridan to'g'ri ism sifatida qo'llanadi: *sardor (apellyativ) – Sardor (ism), muhabbat (apellyativ)- Muhabbat (ism)* kabi.

Ism holatiga o'tayotgan apellyativ sodda asos (*Turg'un, Uyg'un, Mardon, Gavhar*), yasama asos (*Ulbo'sin, Elbek*), qo'shma so'z yoki so'z birikmasi shaklidagi asos (*Eshqobil, Eshpo'lat, Norquvvat*) bo'lishi mumkin. Yuqoridagi shakllar ism vazifasida onomastik doirada antroponimik xarakter topadi va undagi yasallash xususiyati yo'qoladi.

Ismlarning leksik-semantik usulda yasallashi substantivatsiya va adverbializatsiya qonuniyatlariga amal qiladi. Chunki, ism antroponimik xususiyat kasb etgach, avvalgi, apellyativ holatidagi morfologik kategoriyadan ajraladi va atoqli ot kategoriyasiga o'tadi.

Professor A.G'ulomovning yozishicha, onomastika tarkibidagi otlashishga faqat bir usul-leksik substantivatsiya xosdir³⁷. O'zbek tili antroponimlarida substantivatsiya hodisasi quyidagi turkumlar asosida hosil bo'ladi:

1. Sifat otlashishi (substantivatsiyaning bu turi antroponimlar hosil bo'lishida eng faoli): *Asil, Donoxon, Kattabek, Muattar, Nafisa, Aziz, Kenjabek, Qoraxon, Qarshiboy*.

2. Olmoshlar otlashadi: *Kimsanboy, Kimsanoy*.

3. Sonlar otlashadi: *Oltiboy, Panji, Oltmishvoy, Yetmishvoy, To'qsonboy, Beshim, Chori*.

4. Fe'llar otlashadi: *Suyar, O'sar, Ko'char, Sevara, To'lg'onoy, Tilovberdi, Tilov*.

5. Ravish otlashadi: *Eson, Sarsonboy, Omon, Avval, Bulturboy*.

6. Ba'zi modal so'z va undovlar otlashadi: *Shukur, Muborak, Marhamat, Rahmat, Rahmatoy*.

³⁷ Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1957. 294-295-betlar

Otlashgan soʻz turkumlari tilda uzoq vaqt antroponim sifatida yashab qoladi. Otlashish soʻzlarning nominativ-funksional hamda onomastik birlik sifatidagi xususiyatini mustahkamlaydi. Qoʻshma ismlarga qoʻshiluvchi komponentlar bilan yanada turgʻunlashadi. Masalan, *Turdiboy, Goʻzalxon, Quvondiq, Turdimurod*.

Otlashgan soʻz ism vazifasiga oʻtishida, ot soʻz turkumi bajargan grammatik vazifani bajaradi hamda nominativ bir shaxsni ifoda etadi hamda egalik, kelishik, koʻplik (ismlarda koʻplik maʼno kuchaytirish hamda qoʻshimcha maʼno yuklash uchun ishlatiladi) qoʻshimchalarini oladi. Otlashgan sonlar ism vazifasiga oʻtganda sondagi miqdor maʼnosi yoʻqolib, asosan kishining oilada nechanchi farzandligi, ota-onasining necha yoshida dunyoga kelgani hamda boshqa qator jihatlarga asoslanadi. Otlashgan sifatlarning semantik xususiyati haqida tilshunos Z.Maʼrufov quyidagi fikrlarni keltiradi: “Otga koʻchgan sifatlarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, ularning umumiy leksik maʼnolari toraygan va konkretlashgan boʻladi. ...sifat ot kategoriyasiga oʻtishi bilan u umumiy belgi nomini emas, balki sifat belgisiga ega boʻlgan konkret predmetni bildiradi, xolos”³⁸.

Adverbializatsiya ham substantivatsiya jarayoni singari oʻziga xos murakkab tarixiy jarayon hisoblanadi.

Affiksatsiya usulida yasaladigan ismlar bolaga ism qoʻyish chogʻida yasalgan ismlar boʻlib, tilda turdosh leksema sifatida uchramaydi. Bu ismlarga tildagi leksema hosil qiluvchi qoʻshimchalar qoʻshilsa ham nomni yasash nomlash jarayonidagi motivlar asosida yuzaga keladi. Bu leksemalar antroponimiya tizimining yasaliş mahsuli hisoblanadi:

-chi qoʻshimchali ismlar: *Toʻychi, Yoʻlchi, Tinchi, Norchi, Kichchi*.

-li, qoʻshimchali ismlar: *Mengli, Norli, Moyli, Jovli, Choʻlli*.

-mon, -man qoʻshimchasi bilan tugaydigan nomlar: *Mahman, Toshman, Norman*.

-gʻon, -gan, -kan qoʻshimchali ismlar: *Oʻtagan, Oytuvgan(Oytuvgʻon), Toʻlgʻon*.

³⁸ Hozirgi zamon oʻzbek tili. Toshkent: OʻzFA nashriyoti, 1957. 356-bet.

-chin qo‘shimchali ismlar: *Elchin, Barchin, Olchin.*

-q, -iq qo‘shimchasi bilan tugaydigan nomlar: *Suyundiq, Quvondiq, Sog‘indiq, To‘yindiq, Ortiq, Tayloq.*

-lan qo‘shimchali ismlar: *Bog‘lon, Toshlon.*

-mish qo‘shimchasi bilan yasalgan ismlar: *To‘xtamish, Alpomish, To‘lamish.*

-don(-dan) qo‘shimchali ismlar: *Uldon, Obodon. Oydan.*

Keltirilgan ism shakllarining har biri o‘ziga xos ma‘noga egaligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *To‘ychi – to‘y kuni tug‘ilgan, Yo‘lchi- yo‘lda tug‘ilgan, Jovli-og‘zi yog‘li (badavlat) bo‘lsin* degan tilakni ifoda etadi.

Ismlarni yasashning eng sarmahsul usuli bu sintaktik (kompozitsiya) usuli. E. Begmatovning “O‘zbek ismlari ma‘nosi” asaridagi 14600 ta ismning qariyb 60 %, 8194 tasini qo‘shma ismlar tashkil qiladi.

O‘zbek tilidagi qo‘shma ismlar tilda qo‘shma so‘z sifatida mavjud bo‘lgan turdosh leksemadan yasalishi yoki antroponimlar doirasida yasalgan shaklda uchrashi mumkin. Qo‘shma ismlar bir butun leksema sifatida qabul qilinadi. Ammo, qo‘shma antroponimlarni tashkil etgan komponentlar orasidagi munosabat turfa bo‘lganligi boisidan qo‘shma ismlar ikkiga bo‘linadi:

1. Komponentlari tobe munosabatda yasalgan ismlar;

2. Komponentlari teng birikkan qo‘shma ismlar.

Qo‘shma so‘zning so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘zdan yasalishi ismning paydo bo‘lish davri, fonetik xususiyatlari hamda qo‘llanish darajasi singari qator xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababdan, vaqt o‘tishi bilan ism komponentlari orasidagi tobelik yo‘qolib borib, yaxlit bir butunlikka aylanadi: *Tilovmurod, Xudoyberdi, Xoliqberdi.*

Qismlari tobe munosabatga asoslangan qo‘shma ismlar quyidagilar asosida hosil bo‘ladi:

1. Aniqlovchi+aniqlovchi komponentli qo‘shma ismlar:

a) sifatlovchi+sifatlanmish tipli qo‘shma ismlar: *Sohibjamol, Tozagul, Gulbahor;*

b) sifatlovchi vazifasidagi birikmalardan hosil bo‘lgan ismlar: *Haqnazar, Momoqiz, Durmomo*;

d) qaratqich va qaralmish tipidagi birikmalardan hosil bo‘lgan qo‘shma ismlar: *Norgul, Xudoynazar, Gadoyniyoz, Gulchiroy*.

2. Izofali qurilmalarga asoslangan qo‘shma ismlar.

O‘zbek tilida uch xil izofali ismlar mavjud. Bular: turkiy izofali, fors-tojik hamda arab izofali ismlar hisoblanadi. Izofa – arabchadan olingan bo‘lib, *qo‘shish, bog‘lash, tirkash* degan ma‘nolarni anglatadi. S.S.Mayzel³⁹, A.K.Borovkov⁴⁰ va boshqalar maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Izofa masalasi onomastikaga ham daxldor, chunki bir qator ismlar izofali qoliplar asosida yuzaga kelgan. Bu qoliplarni ikki guruhga ajratish mumkin: o‘zga qatlamdan kirib kelgan izofali antroponimlar hamda o‘z qatlamdan yasalgan ismlar. O‘zga qatlamdan kirib kelgan izofali ismlar arabcha hamda forschadan o‘zlashgan. Arabcha izofali ismlarda *abdu* (qul) yoki *abdi* so‘zlari erkaklar ismiga qo‘shilib, Ollohning 99 ismi oldidan ishlatiladi va bu holat Ollohning sifatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmasligi sababli ismlarga qo‘shiladigan, *niso* esa ayollar ismiga qo‘shiladigan komponentlardir. *Abdurahmon, Abdusattor, Abdug‘affor, Abduxoliq; Bahriniso, Tojiniso, Sarviniso*. Fors-tojikchadan kirgan izofali ismlarda esa asosan -i komponenti asosida yasaladigan ismlarni ko‘rishimiz mumkin. *Gulirayhon, Gulijahon, Gulinor, Lutfullo, Sayfiniso*.

3. Ega va kesim qolipida hosil bo‘lgan qo‘shma ismlar.

Bunday ismlar faqat bosh bo‘laklar(ega va kesim)dan iborat bo‘ladi: *Xoliqberdi, Azizberdi, Boykeldi*. Ba‘zan bu bo‘laklar o‘zaro o‘rin almashib kelishi ham mumkin: *Turdimurod, Keldiyor, Berdiyoy*.

4. To‘ldiruvchi va kesim qolipli ismlar. Bu bo‘laklar asosida hosil bo‘luvchi ismlar *Olloshukur(Ollohga shukur), O‘tbosar, Tovoshar, Yo‘lbosar*.

5. Hol va kesim qolipidagi ismlar. Bunday birliklarda ikkinchi qism harakatni bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanadi. Ismning birinchi qismi esa ikkinchi

³⁹ Майзел С.С. Изафет в турецком языке. М: Изд-во АНН СССР, 1957.

⁴⁰ Боровков А.К. Природа “турецкого изафета” // Памяти академика Н.Я.Марра. Вып. XIV. 1935. С.165-177.

qismdagi tushunchaning belgisini ifodalab keladi: *Omonturdi, Esonturdi, Xushkeldi, Jumageldi*.

Komponentlari teng bog‘lanishga asoslangan qo‘shma ismlar o‘zbek antroponimiyasining yana bir yasash usuli bo‘lib, ismni tashkil etgan qismlar orasida semantik hamda grammatik aloqa yo‘q holda yuzaga keladi. Masalan, Tursunali ismi har ikki komponentning o‘zaro “aloqa”si yo‘q. Bu ism qadimgi turkiy e‘tiqodlar (tursun-farzand “turishi”, yashashi uchun qo‘yilgan) hamda islomiy aqida (Ali-xalifalardan birining ismi) larning bir ismga birlashishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday ismlar o‘zbek antroponimik sathida talaygina: *Toshmuhammad, Toshali, Normuhammad, Eshqobil, Ergashali va boshqalar*.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Hozirgi o‘zbek tilida iste‘molda bo‘lgan ismlarda o‘zbek aholisining istak va motivlarigina aks etibgina qolmay, fors-tojik hamda arabcha nomlar ham mavjud. Bu ismlarga xos motivlar o‘sha tillarda qolgan. Masalan, *Muso, Iso, Is’hoq* ismlarining motivlari qadimiy yahudiy tilida, *Abdusamad, Abduvohid, Abdulla* ismlari motivi arab tilida *Binobar, Baxshanda, Gavharshod* ismlari motivi esa fors-tojik tilida qolgan;

2. Rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o‘smir surunkali kasal bo‘laversa, nomi (xususan, Alloh, payg‘ambar, avliyo yoki umuman, burjlar nomi bilan atalgan bo‘lsa, nomni ko‘tarilmadi deb hisoblanib) qaytariladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo‘shaloq nom (biri rasmiy, bir evfemik atama)ga ega bo‘lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqlovni nom sifatida faollashib ketadi;

3. O‘zbek xalqi tarixda zardushtiylik, buddaviylik va islom dinlariga e‘tiqod qilgan. Bu esa xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzida o‘z izini qoldirgan. Bu o‘z navbatida antroponimlarda aks etgan. Xalq e‘tiqodida eng so‘nggi din sifatida islom

dini alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun antroponimlarda islom dini bilan bog‘liq motivatsiya keng o‘rin tutadi;

4. Hozirgi davrda o‘zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin: sodda tuzilmali antroponimlar, yasama tuzilmali antroponimlar, qo‘shma tuzilmali antroponimlar;

5. Komponentlari teng bog‘lanishga asoslangan qo‘shma ismlar o‘zbek antroponimiyasining yana bir yasalish usuli bo‘lib, ismni tashkil etgan qismlar orasida semantik hamda grammatik aloqa yo‘q holda yuzaga keladi. Masalan, *Tursunali* ismi har ikki komponentning o‘zaro “aloqa”si yo‘q. Bu ism qadimgi turkiy e‘tiqodlar (tursun-farzand “turishi”, yashashi uchun qo‘yilgan) hamda islomiy aqida (Ali-xalifalardan birining ismi) larning bir ismga birlashishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday ismlar o‘zbek antroponimik sathida talaygina: *Toshmuhammad, Toshali, Normuhammad, Eshqobil, Ergashali* va boshqalar.

III BOB. ANTROPONIMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

3.1.O‘xshatish asosida hosil bo‘lgan antroponimlar

V.Gumboldtning fikricha, insonning shaxs sifatidagi mohiyatini aniqlash, odamga xos insoniy belgilarini ajratish demakdir. Til ana shunday vositalardan biri bo‘lib, inson faqat til va ong orqaligina odamga aylanadi va bu jarayonda insonning ijodiy qudrati, uning ichki imkoniyatlari harakatga keladi. S.G.Vorkachevning ta’kidlashicha, tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti yoki antroposentrik paradigma insonga “barcha narsalarning o‘lchovini” berdi va uning dunyoqarashini ma’lum markazga yo‘naltirdi.

Ayonki, shaxs nomlari o‘zi mansub bo‘lgan insonlarni bir-biridan ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qilishidan tashqari, birlashtiruvchi vazifani ham bajarishi mumkin, buning uchun nom egalarini ma’lum ijtimoiy tartibda joylashtirish talab etiladi.

Milliy etnografik an’ana va udumlar, ishonch, tasavvurlarga motivlangan ismlar har bir tilda mavjuddir. Bugungi kunda iste’modagi antroponimik birliklar qatorida ularning hammasi ham uchraydi deb bo‘lmaydi. Ismlar tanlovida motivlar doimo o‘zgarib boradi va ilk motivlar xiralashadi. Xalqning umumiy milliy-madaniy tushunchalari, qadriyatlaridan tashqari har bir insonning o‘z qarashlari va tushunchalari mavjud. Bu borada ismlarni o‘xshatish asosida tanlash, ism qo‘yilayotgan shaxsni turli tasavvurlar bilan nimalargadir o‘xshatish, unga qiyoslash o‘ziga xosdir. O‘xshatishlar antroponimni qaysi madaniyat vakili ekanligini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi.

O‘xshatishlar asosan badiiy matn tahlili obyektini hisoblanib, badiiy nutqning muhim tasviriy vositalaridan biridir. O‘xshatish – ikki narsa yoki voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘liqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko‘chimning sodda turi⁴¹. Shu sababli o‘xshatishga badiiy nutq talabi nuqtayi nazaridan yondashish, bu vositaning badiiy nutqdagi o‘rnini yorqin gavdalantirish

⁴¹ Ўзбек тилининг иохли луғати.

uchun muhim imkoniyat yaratadi. O‘xshatishlarning badiiy nutqdagi vazifasi nutqning badiiy obrazlilikini oshirish hamda kishiga estetik ta’sir etishdan iboratdir. Badiiy asarlarda uchraydigan barcha o‘xshatishlarga shu nuqtayi nazardan yondashib bo‘lmaydi. Chunki o‘xshatishlar o‘xshatish obyekti va o‘xshatish subyektining (etaloni), ular o‘rtasidagi o‘xshash belgi oldindan ma’lum yoki noma’lumligi bilan o‘zaro farqlanadi.

Tilimizda o‘xshatishlarni yuzaga keltiruvchi – *day (-dek), -dayin, -namo, -ona, -simon, -omuz, -larcha, -chasiga, -cha kabi affiklar, xuddi, go‘yo, go‘yoki, taxlit, kabi, singari, misoli, bamisoli, yanglig‘* yordamchi so‘zlari muhim vositalar sanaladi. Antroponimlarning nomlanishida mazkur qo‘shimcha va yordamchi so‘zlar aks etmasada, mantiqan ular mavjud: *Oyxon – oyday go‘zal, gulchiroy – chiroyi guldek, Soliha – soliha yanglig‘, Hurliqo – bamisoli hur, hurliqo, Yulduz – go‘yo yulduzdek* va boshqalar.

O‘xshatish har bir falsafiy tushuncha kabi shakl va mazmun birligidan hosil bo‘ladi. O‘xshatishlarning shakliy tomoni tashqi tarkibiy tuzilishiga aloqador bo‘lsa, mazmun tomoni uning ichki xususiyatlarini qamrab oladi. Yuqorida tilga olingan mualliflarning fikrlarini inkor etmagan holda, o‘zbek tilida o‘xshatishlarni lisoniy nuqtayi nazardan o‘rganar ekanmiz, tadqiqotda ma’lum bir izchillikka tayangan holda quyidagi tasnif asosida ish ko‘rishni afzal bildik. O‘zbek tilida o‘xshatishlarni qo‘llanilishiga ko‘ra quyidagi tartib asosida o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi deb o‘yladik:

1. O‘xshatishlarning struktural – kompozitsion tabiati.
2. O‘xshatishlarning leksik va grammatik tabiati.
3. O‘xshatishlarning badiiy – estetik (poetik) tabiati ⁴².

O‘xshatishlarning bu tartib asosida o‘rganilishi shakl va mazmun birligi nuqtayi nazaridan lisoniy va ma’naviy xususiyatlarini kompleks tarzda o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqot davomida shu narsa ayon bo‘ldiki, o‘xshatishlarning yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlarini goh ayricha, goh bir butun holda olib

⁴² Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент. 2005.

qarashga ehtiyoj tug‘iladi. Shuning uchun ham o‘xshatish hodisasining talqinida ba‘zan barcha xususiyatlar boricha ahamiyatli bo‘lgan o‘rinlar ham mavjuddir.

Bolani go‘zallik, chiroylilik ramzlari bilan nomlovchi ismlar. Ota-onalar o‘z farzandining (ayniqsa, qizlarning) kelishgan, chiroyli, go‘zal bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilishadi.

1) ism go‘zallik ramzi bo‘lmish yorug‘lik, nur tushunchalarini anglatuvchi so‘zlardan tanlanadi, bola ana shunday xususiyatga ega bo‘lsin deb tasvirlanadi: *Balqiniso* (yaltiroq, chaq nab turuvchi), *Zulfinur Nurbadan*, *Nurliro‘y*, *Nurliqo*, *Nurlig‘oyat*, *Shamsinur*;

2) ism go‘zallik ramzi hisoblanuvchi qimmatbaho ma‘danlar, buyumlar nomiga nisbat berish orqali yaraladi: *Kumushgo‘zal*, *Kumushjamol*, *Kumushoy*, *Kumushsuluv*, *Oykumush*;

3) ismga go‘zallik ramzi bo‘lgan xayoliy mavjudotlar nomi asos bo‘ladi va bola o‘shalarga qiyos qilib tasvirlanadi: *Parizoda*, *Parivash*, *Pariniso*, *Pariruh*, *Hurbeka*, *Hurzod*, *Hurzoda*, *Huriniso*, *Hurqiz*, *Hursanam*;

4) ismning nominativ asosini ko‘rkamlik va nafosat namunasi bo‘lgan o‘simliklar, xususan, gullar nomi tashkil qiladi. Bola o‘sha gullar kabi go‘zal bo‘lsin deb orzu qilinadi: a) gullar va ba‘zi o‘simliklar nomi: *Atirgul*⁴³, *Binafsha*, *Boychechak*, *Bo‘tagul*, *Gul*, *Gulafro‘z*, *Gulbeka*, *Gulbibibi*, *Gulgo‘zal*, *Gulguna*, *Zarchechak*, *Ziragul*, *Lola*, *Lolagul*, *Lolaniso*, *Lolaruh*, *Lolaqiz*, *Lolaro‘y*, *Maysajamol*, *Marjongul*, *Maydagul*, *Maysabeka*, *Nargiza*, *Nasrin (oqgul)*, *Oqgul*, *Pistagul*, *Savsanoy*, *Safsar*, *Safsargul*, ; b) daraxtlar va ularning guli: *Bodomgul*, *Oylargul (shaftoli guli)*;

5) ismning nominativ asosini hayvonlar nomi tashkil qiladi:

hayvonlar nomi: *Bo‘tako‘z*, *Bo‘taqora*, *Kiyikgo‘zal*, *Kiyikjamol*, *Maraljamol*, *Qunduzbeka*, *Qunduzoy*;

⁴³Баскаков Н.А. Элемент гул “роза, цветок” в составе каракалпакских имен / Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. – С.138-144.

6) ism ko'rkamlikni yuzaga keltiruvchi fasllar yoki go'zal o'simlik makoni bo'lmish joylar nomiga nisbat berib yasaladi va ism egasi o'shalarga qiyos qilib tasvirlanadi: *Bo'stonoy, Bo'stonbibi, Dastagul, Ko'klamoy, Bahorjamol, Bo'stongo'zal, Chamanbuvi, Chamangul, Chamanoy;*

7) oy, kun, xurshid, shams leksemalariga biror mos tushuvchi komponent qo'shib yasalgan ismlar orqali bolaning chiroyli ekani tasvirlanadi: *Kungo'zal, Kunsuluv, Kunjamol, Mohgul, Zulqamar (oymonand), Mohak (jajji oy), Mohbegim, Mohbonu, Mohbuvi, Mohijamol, Mohiliqo, Mohiniso, Mohipora, Mohisuluv, Oybarno, Oybeka, Oybibbi, Oybonu, Oyyigit, Oymalak, Oysimon, Oysifat, Oysuluv, Oysurat, Oyxon, Oycha, Safida (oy yuzli), Xurshid, Xurshida, Shamsibonu, Shamsigul, Shamshiniso, Qamarjamol, Qamariya, Qamarniso, Hilola.*

Mana shu tip ismlar sayyoralar nomidan ham hosil qilingan: *Najimoy, Oyyulduz, Cho'lponoy, Cho'lponbuvi, Hulkaroy, Hulkara, Hulkarboy, Zuhro, Tongcho'lpon, Tongyulduz, Shamsiqamar* va b.;

8) ismda insonga xos ba'zi chiroylilik, zebolik fazilatlarini ifodalanadi va bola ana shunday go'zal shaxs deb tasvirlanadi: *Mehrijamol, Mehrinigor, Mehrisulton, Mengsuluv, Nuryuz, Oybadan, Oysiyana, Oqsuluv, Oqtomoq, Oqjamol, Oygo'zal, Ra'noqad, Sarviqad, Xiromon, Xiromoy (nozli qadam tashlovchi), Qalamqosh, Qorako'z, Qorasoch, Qorasuluv, Qoraqosh, Quralay (ko'z), Norchuchuk* va b.;

Yuqoridagi dalillar shundan darak beradiki, xalqimiz ism orqali bolaning go'zalligini tasvirlashda uchta asosiy usuldan foydalangan: a) ism chiroylilik, ko'rkamlik tushunchasini anglatuvchi so'zlardan tanlangan; b) ism ko'rkamlik va nafosatni anglatuvchi ramziy ma'noli so'zlardan tanlangan; v) ismning komponentiga go'zallik tushunchasini anglatuvchi biror komponent qo'shib qo'shma ismlar hosil qilingan;

Go'zallik va nafosat motivi bilan bog'liq nomlarning aksariyatini qo'shma ismlar tashkil qiladi. Ismning old yoki orqa komponenti bo'lib keluvchi *go'zal, suluv, jamol, gul, oy, qamar, chechak, pari, nur, nigor* va boshqa so'zlar ismga ko'rkamlik, chiroylilik tushunchasini kiritadi va o'xshatish asosida hosil qilingan deb hisoblanadi.

Go‘zal, suluv, jamol, gul, oy komponentlari

Ismga qo‘shiluvchi komponentlar				
<i>Go‘zal</i>	<i>Suluv</i>	<i>Jamol</i>	<i>Gul</i>	<i>Oy</i>
Komponentlar orqali yasalgan ismlar				
Bo‘stongo‘zal	Annasuluv	Buvjamol	Baxtigul	Anoroy
Zebogo‘zal	Bibisuluv	Davlatjamol	Bozorgul	Bahoroy
Kumushgo‘zal	Boysuluv	Zarinjamol	Boltagul	Bibioy
Ko‘rpago‘zal	Buvisuluv	Zebojamol	Bog‘guli	Gulimoy
Maysago‘zal	Jonsuluv	Kumushjamol	Bo‘tagul	Guloy
Momogo‘zal	Kumushsuluv	Maysajamol	Jumagul	Gulsunoy
Nozikgo‘zal	Kunsuluv	Mohijamol	Zebogul	Oysara
Norgo‘zal	Momosuluv	Nozikjamol	Ibogul	Mahkamoy
Mehriqo‘zal	Mohisuluv	Norjamol	Ko‘rkamgul	Noroy
Olmago‘zal	Nozsuluv	Menglijamol	Marjongul	Oybahor
Oqgo‘zal	Norsuluv	Mehrijamol	Mohgul	Oyniso
Safargo‘zal	Mengsuluv	Mirjamol	Mohigul	Oynura
Tillago‘zal	Mehrisuluv	Mirzajamol	Navro‘zgul	Oyro‘zi
Shogo‘zal	Misirsuluv	Muhibjamol	Norgul	Oychehra
O‘rozgo‘zal	Oysuluv	Oqjamol	Menggul	Ravshanoy
O‘g‘ilgo‘zal	Tongsuluv	Sadafjamol	Sarvigul	Ro‘zioy
Menggo‘zal	Totlisuluv	Soatjamol	Safargul	So‘limoy
Minggo‘zal	To‘ysuluv	Shirinjamol	Suluvgul	Tal‘atoy
Oygo‘zal	Xonsuluv	Hurjamol	Tillagul	Toshoy
	Qizlarsuluv	Hurijamol	Tozagul	Tursunoy
	Qurbonsuluv	Husnijamol	Qizlargul	Qizlaroy

**meng (xol, nor) so‘zi ismlar tarkibida tovush jihatdan o‘zgargan: Mengsuluv – Mingsuluv, Menggo‘zal – Minggo‘zal, Mengnor – Mingnor.*

**Qamar, chechak, pari, nur, nigor, sanam komponentlar yordamida yasalgan
kontaminatsion nomlar**

Ismga qo‘shiluvchi komponentlar					
<i>Qamar</i>	<i>Chechak</i>	<i>Pari</i>	<i>Nur</i>	<i>Nigor</i>	<i>Sanam</i>
Komponentlar orqali yasalgan ismlar					
Bibiqamar	Gulchechak	Gulpari	Mohinur	Mohnigor	Gulsana
Layliqamar	Zarchechak	Mohipari	Nurafshon	Mehrinigor	Dursanam
Nurqamar	Norchechak	Mohpari	Nurbibi	Xubnigor	Mohsanam
Nuriqamar	Nurchechak	Nozpari	Nurgul		Oysanam
Oyqamar	Oychechak	Oypari	Nurjamol		Og‘asana
Shamsiqamar	Hurchechak	Shopari	Nurziyo		Shohsanam
			Nuriniso		Hursanam
			Nursuluv		
			Nurxon		

3.2. O‘zbek antroponimlarida milliy stereotipning ifodalanishi

Ma’lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o‘zida namoyon etuvchi noekivalent leksika va lakunalar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miflashgan ko‘rinishlari: arxetip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o‘z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o‘xshatish va metaforalar hamda o‘zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi. Biz tadqiqot ishimizning mazkur faslida antroponimlarda stereotiplarning ifodalanishini tahlilga oldik.

Har qanday madaniyat o‘zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o‘z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma’lumot beradi.

Stereotiplar xalqning borliqni idrok etishi, undan xulosa chiqarishi va amalda foydalanishi asosida vujudga keluvchi his-tuyg'ular majmuidir. Stereotiplar shaxslar, narsalar, urf-odatlar asosida ham shakllanadi.

Dunyo lingvomadaniyatida olamning lisoniy manzarasini paydo qiluvchi va ayni zamonda turli xalqlar madaniyatini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan shunday tushunchalar ham borki, ular konsept sifatida har bir shaxsning o'z dunyoqarashida shakllanadi. Bunda shaxsning qanday muhitda tug'ilgani va yashayotganligi asos bo'ladi. Tilimizda, turmush-tarzimizda, muomalamizda, kiyinishimizda va yana ko'plab holatlarda ko'zga tashlanadigan va biz madaniyat deb tushunadigan qadriyatlar borki, u har bir xalqda o'ziga xos bo'ladi. Chunki, tarixiy bo'linish va shakllanishdan boshlab, bugungi kunimiz, zamonaviy hayotimizgacha bo'lgan davr turli xalqlarda turlicha kechgan. Xalq og'zaki ijodida, tarixiy asarlarda, yozma yodgorliklarda ifodalangan, turli an'analar xalqlarning qanday o'ylashi, nimani to'g'ri deb bilishi, kimni ideal deb hisoblashi kabi tasavvurlar shu xalqning tarixi va ajdodlarining qarashlari bilan bog'liq. Shunga ko'ra lingvomadaniy tushunchalar ham xilma-xildir. Bu tushunchalar orasida stereotip milliy madaniyatni tasavvur etishda o'ziga xos hisoblanadi. Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir⁴⁴. V.A. Maslovaning ta'biricha, “stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va hokazolarni belgilaydi. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi⁴⁵. Bundan tashqari, lingvokulturologiyada: olam konseptual manzarasining bir qismi, kichik mental manzara; predmet va vaziyatlar haqidagi turg'unlashgan milliy-madaniy tasavvurlar va ularning tilda aks etuvchi shakllari, ijtimoiy guruhlar yoki alohida shaxslar haqidagi qoliplashgan tushuncha, qarashlar ham stereotipdir⁴⁶. Umumiy qilib aytganda, har bir xalqning

⁴⁴ Қаранг: Usmanova Sh. Lingvokulturologiya, darslik. T.: 2019. – Б.151.

⁴⁵ Usmonova Sh. Ko'rsatilgan asar. – Б.167.

⁴⁶ Худойберганава Д. Лингвокультуроология терминларининг қисқача изоҳли луғати., Т.: Туронзамин зиё, 2015. – Б. 36.

lingvomadaniyati va unga aloqador tushunchalarni tahlil qilish, o'rganish va bilish harakati stereotipdir. Stereotip xalqlar madaniyatida milliylikni aks ettirgan biror bir shaxs (tarixiy qahramon), an'ana yoki urf-odatga, marosimlar va ularga xos so'zlarda (misol uchun etnografizmlar) oydinlashadigan milliy xarakter-xususiyatni ifodalovchi tushuncha. Stereotipik xarakter – xalqning tasavvurida milliy madaniyatning targ'ibotchisi bo'lgan shaxs, uning vatanparvarlik, to'g'riso'zlik, halollik, kuchlilik (turli xalqlarda turlicha) kabi jihatlariga taqlid, o'zlashtirish yoki hurmat bilan munosabatda bo'lish, uni ibrat namunasi sifatida ko'rsatish. Har qanday vaziyatda ham milliy madaniyatni ifodalovchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Har bir xalqning milliy madaniyatiga e'tibor berar ekanmiz, unda qadimiy urf-odatlarga, tarixiy qadriyat va an'analarga sodiqlik, ularni avloddan-avlodga yetkazish madaniyatni asosini tashkil qilganini ko'ramiz⁴⁷.

Stereotip termini (*yunon. Stereos - qattiq, typos -iz,tamg'a*) amerikalik sotsiolog U.Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan *Jamoat fikri* nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi orni va rolini aniqlashga harakat qilgan. U.Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg'ularimizdagi ma'lumotlarga muayyan ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan. Olimning fikriga ko'ra, inson uni o'rab olgan atrof-muhitni butun qarama-qarshiliklari bilan anglashga harakat qilib, o'zi bevosita kuzatmagan hodisalar haqida o'zining miyasida manzara hosil qiladi⁴⁸.

Hammamizga ma'lumki, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zbek xalqida ismlarning o'rni va mohiyati katta. Bola tug'ilgach, unga yaxshi niyatlar ila ism tanlanadi, bu jarayonga nominatorlar (ya'ni, ism qo'yuvchilar) turlicha yondashishadi. Tilshunoslikda ismlarni o'rganuvchi bo'lim onomastika, ya'ni nomshunoslik, kishi ismlari esa antroponimlar deya yuritiladi.

⁴⁷ Bu haqida to'liqroq qarang: Курбаназарова Н. Сурхондарё тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалс.док.дисс. :- Термиз 2021. – Б:98-99.

⁴⁸ Lippmann W. *Public Opinion*. BN Publishing. USA, 2007. P. 89.

Antroponimlar (ism, ota ism, familiya yoki laqab va taxallus)ning yaratilishi muayyan ehtiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi.

Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz chaqaloqqa ism qo'yishar ekan, uning baxti va omadi ismiga bog'liq deb hisoblashgan. Ushbu e'tiqod ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo'ladi, degan qarashni tug'dirgan. "Chaqaloqqa qo'yilgan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi" deyilgan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo'lib yuradigan vositaga aylantira borgan⁴⁹. Bu o'zbeklarga xos stereotipik xarakter bo'lib, o'ziga xos ma'naviy olamini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi qadimdan ism tanlashda so'z kuchiga, uning bola ruhiyati va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishiga ishongan. Masalan, chaqaloqqa tug'ilish jarayoni va boshqa ba'zi xususiyatlariga mos nom berish, bolaga ism orqali turli istak va orzularning izhor qilinishi, bola ismini yashirin tutish, ismi bolaga og'irlik qilmoqda, deb boshqa ism bilan almashtirish, bolaga nomunosib xarakterli kishilar ismini qo'ymaslik, ism uchun keksalar nomini tanlash, bolani Alloh va payg'ambarlar, avliyolar, mashhur din namoyondalari, o'tgan ajdodlar nomi bilan atash, ular ruhi bolani qo'llaydi deb bilish va boshqalar buning isbotidir.

S.E.Kenjayeveva o'zining nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ismlarini bag'ishlov ismlar, tasviriy ismlar va ism-istaklarga ajratib tasniflaydi⁵⁰. Bag'ishlov ismlarini qo'yishda sabab chaqaloqning tug'ilishi, farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ko'magi, ehsoni deb hisoblanadi va chaqaloqqa o'sha taxmin qilingan, e'tiqod qilinayotgan narsa, shaxs, tasavvurning nomi ism sifatida beriladi. Bag'ishlov ismlarining o'zi bolaning tug'ilishi va etnologik tushunchalarga nisbat berish orqali namoyon bo'ladi. Bu kabi ismlarni quyidagicha ma'nolar ifodalanadi:

Keldixon, Kelsin, Mehmonoy, Mehmonbek, Lozim, Lozima kabi nomlarda ota-onalarning tug'ilgan chaqaloqqa munosabati ifoda etiladi.

⁴⁹ Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME, 2010 (uchinchi nashri). – B. 588.

⁵⁰ Kenjayeveva S.E. O'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi. nom.diss. avtoreferati. -Toshkent, 2011.

Armonboy, Intizor, Zorliq, Ijobat, Maqsadoy, Orzuniso, Tilaboldi, Tilakberdi, Umida, Umid ismlarida esa farzandli bo'lish orzu qilib kutilgan va bolaning tug'ilishi ana shu tilaklarning amalga oshishiga ishora qilinadi. *Tasalli, Taskinoy, Taskina, Shukura, Shukriya, Qulluq, Qulluqbeka* va b.larda esa chaqaloqning dunyoga kelishi oilaning taskin topishi, tinch va osoyishta bo'lishi uchun sabab deb hisoblanadi.

Azizkeldi, Loyiq, Manzura, Ma'qula, Munosib, Suyukli, Suyuma kabi ismlarda bola oilaning munosib a'zosi deb qabul qilingan. *Sevinchbek, Suyundiq, Quvondiq, Quvonch, Quvontoy* ismlarida bolaning tug'ilishi ota-onaga cheksiz quvonch baxsh etgani ifodalanadi. *Qutli, Qutlikeldi, Davlatqadam, O'rozqadam* kabi ismlarda oilaga kelgan omad va muvaffaqiyatlar bolaning tug'ilishi bilan bog'lanadi va shunga ishora qilinadi.

Etnologik tushunchalarga nisbat berilgan ismlarda esa, asosan, bolaning etnik kelib chiqishi e'tiborga olinadi. Bunda bolaning qaysi etnik guruhga mansubligini, o'sha etnos farzandi ekanini, uning o'tmish ajdodlari o'sha urug' yoki qabilaga mansubligini, chaqaloq o'shalarning davomchisi ekanini ta'kidlash ko'zda tutiladi. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar fanda etnoantropnimlar⁵¹ deb yuritiladi. Masalan, *Abdal, Arg'inboy, Barlos, Bahrin, Boyqo'ng'ir, Bo'ronboy, Do'rmon, Jaloyir, Olchinbek* kabilar. Shuningdek, o'zbek ismlari tizimining katta qismini diniy tushuncha, tasavvur va aqidalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar tashkil qiladi. Bu jihatdan ham ismlarni bir nechta guruhga ajratishimiz mumkin.

Bolaning tug'ilishi, farzandli bo'lish Ollohning xohish-irodasiga bog'lanadi: *Tangriberdi, Tangribergan, Olloberdi, Haqberdi, Xudoybergan, O'g'onberdi, Egamberdi, Berdirahmat*. Bunday ma'noli ismlar oxiri –ulla (Alloh) komponenti bilan tugagan ismlarga tegishli: Baxshulla, Nasibulla, Ne'matulla, Inoyatulla, Rizqulla, Shafqatulla, Tuhfatulla, Atoulla; ism Allohning turli atributlarini anglatuvchi nomlarga –ulla, -bergan, -berdi, -ato kabi komponentli

⁵¹ Begmatov E., Uloqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008. – B. 134-145.

qo'shma va so'z ism sifatida tanlanadi: *Azizulla, Ahadulla, Karimulla, Majidulla, Nurulla, Rahmonulla, Samadulla, Fathulla, Xayrulla, Karimberdi, Xudoybergan, Berdirahmat*; bolaga Allohning bandasi, quli, xizmatkori degan ma'noni anglatuvchi ismlar qo'yiladi. Bunday ismlarni alohida so'zlardan yoki komponentlaridan birida abdu-, -qul, -g'ulom ishtirok etgan nomlar tashkil qiladi: *Abdurahmon, Abdulaziz, Orziqul*; Tasviriy ismlar ham turlicha tasnif qilinadi.

1. Bolaning tug'ilgan vaqtini tasvirlovchi ismlar: bolaning qaysi oyda, faslda tug'ilgani tasvirlanadi: *Asad, Ashura, Ashur; Bahora, Bahorniyoz; Ko'klamoy; Robiya, Robiyabu; Rajabbergan, Ramozon; Muharram; Savurboy, Savura; Safarberdi, Safarkeldi, Safarmurod; Sunbula; Qurbonoy, Qurbonsuluv; Kuzboy, Kuzkeldi; Yozboy, Yozxon, Yozbeka, Yozberdi* va boshqalar; ismda bola haftaning qaysi tug'ilgani tasvirlanadi: *Jumaboy, Jumakeldi, Jumaniyoz; Dushan // Duyshanba, Shanba, Shanbagul; Bozorboy, Bozorgul; Anna // Odina, Annaberdi, Annasuluv* va boshqalar; chaqaloq sutkaning biror payti, onida tug'ilgani tasvirlanadi: *Azonboy; Saharbeka, Subhida, Subhiya, Subhiniso; Tongboy, Tonggul, Tongnur, Tongotar, Tongotmish; Namoz, Namozgul* va boshqalar; bir qator ismlarda chaqaloq tug'ilgan paytda tabiatning biror hodisasi yuz berayotganligi tasvirlanadi: *Yomg'irboy, Yomg'irchi, Yog'inboy; jalaboy; Yildirim (Chaqmoq); Oydin; Dovulboy, Dovulli; Do'lboy, Do'lchi; Oyto'ldi, Oyto'liq; Qirovboy (Shudring); Qorbola, Qoryog'di, Qoryigit, Qorkeldi, Qorli* va boshqalar;

2. Chaqaloqning boshqa farzandlar orasidagi o'rnini, tug'ilish navbatini tasvirlovchi ismlar.

Chaqaloqning boshqa bolalar qatoridagi o'rnini, nechanchi bola ekanini tasvirlash udumi ham mavjud. Masalan, dastlabki, birinchi farzand *Avvalboy, To'ng'ich, Kattabek deb* ismlansa, undan keyingi va oxirgi bolalar *Kenja, Kenjabek, Kenjam, Kenjasuluv, Kenjatoy, Kichiktoy, Kichikqiz, Ko'rpa (oxirgi bola), Ko'rpagul, Ko'rpago'zal, Xulosa, Miyonjon (O'rtancha)* deb nomlanadi. Ba'zan ushbu tushuncha son turkumidan yasalgan ismlar orqali

tasvirlanadi: *Uchboy, Uchim, Chori, Chorikeldi, Panji, Panjibibi, Panjigul, Oltiboy, Sakkizxon, To‘qqizboy, To‘qqiznazar* va b.

3. Bola tug‘ilgan joyni tasvirovchi ismlar: *Yobonboy // Yovon, Dalaboy, Yozloq, Yo‘lberdi, Yo‘lkeldi, Yo‘lturdi* va b.

Ismning nominativ asosini ko‘rkamlik va nafosat namunasi bo‘lgan o‘simliklar, ayniqsa, gullar nomi tashkil etadi: gullar va o‘simliklar nomi: *Atirgul*⁵², *Binafsha, Boychechak, Bo‘tagul, Gulbeka, Gulbeka, Gulguna, Zarchechak, Lolagul, Lolaniso, Lolaruh, Lolaro‘y, Nargiza, Nastarin (oqgul), Oqgul, Ra‘no, Savsanoy, Safsargul, Sumanso (jasmin), Sunbula (o‘simlik); - daraxtlar va ularning guli: Bodomgul, Oylargul (shaftoli guli), Sambit (tol), Sarvi, Sarviniso (daraxt), Charos;*

Ismning nominativ asosini hayvonlar va qushlar nomi tashkil qiladi: Hayvonlar nomi: *Bo‘tako‘z, Kiyikjmol, Suvsar, Suyg‘un (kiyik), Qunduz, Qundubeka, Qunduzoy, G‘azola (kiyik,ohu); Qushlar nomi: Sulgun // Suyqun (qirg‘ovul), Qaldirg‘och, Qarlig‘och, Anduvoch, To‘ti, Maynaxon, To‘rg‘ay* va b.

4. Bolaning tug‘ilgan paytdagi ko‘rinishi va anatomik holatini tasvir holatini tasvirovchi ismlar. Ma‘lumki, ba‘zi bolalar tug‘ilganida badanida, ba‘zi a‘zolarida g‘ayritabiiy xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Kishilar bu holatlarni Yaratganning mo‘jizasi, qudrati tufayli yuz bergan deb hisoblashgan. Shu sababli, ba‘zan bunday bolalarga *Qudrat, Qudratulla, Hayrat, Ijoza (karomatli), Karomatxon* kabi ismlar qo‘yishgan.

Xalq orasida mana shunday belgilar bilan tug‘ilgan bolalarga nisbatan “ismi o‘zi bilan tug‘ilgan bola” degan qarash va ibora mavjud. Bunday nomlarda chaqaloq tug‘ilishi bilan ma‘lum bo‘lgan xususiyatlar unga berilgan ism orqali tasvirlanadi.

1) bolaning dunyoga kelgandagi holati tasvirlangan ismlar: *Chalaboy (bola muddatiga yetmasdan oldin 7-8 oylik bo‘lib tug‘iladi), Pardaboy,*

⁵² Баскаков Н.А. Элемент “роза, цветок” в составе каракалпакских имен // Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. – С. 138-144.

Pardaniso, Pardaboy, Eshparda (ona qornida pardaga o'ralib tushadi), Tuvoq, Tuvoqberdi, Oytuvoq (pardali);

2) bola tug'ilganda terisining biror joyida (ko'pincha yuzida, yelkasida, qo'lida, kuraklari terisida) qizil yoki qora dog'lar va xol mavjud bo'lgan. Ushbu nuqsonlar ko'payib yoki yoyilib, kattalashib ketmasin, bolaga qandaydir zarar keltirmasin degan maqsadda o'sha dog', belgilarning nomi (oddiy so'zlar) ism sifatida tanlangan. Masalan bunday ismlarga xol (meng), anor, toj, shox bilan bog'liq ismlarni kiritishimiz mumkin: *Xoldor, Xolyor, Xolida, Oyxol, Nurxol, Xolchuchuk; Menggul, Mengjamol, Mengliboy, Mengliyor, Mengoyim, Meylixon; Anorboy, Anora, Anorgul, Norboy, Norxon, Norbadan, Norbeka, Norbo'ta, Norgo'zal, Norxo'ja, Norqobil* (bunday ismlar qizil rangdagi xol yoki dog'i bor chaqaloqlarga qo'yilgan); *Tojixon, Tojibar, Tojigul, Tojimurod, Tojiqiz, Umrtaj, Tojinor, Nortaji, Oytoji* (toji so'zi ham xol, dog' ma'nosida bo'lib, chaqaloq badanida qora, qizil rangda bo'lgan); *Shoxli, Shoxdor* (bu ism ko'proq boshida do'mboqlik belgisi bo'lgan bolalarga qo'yilgan); Shuningdek, o'zbek xalqida shunday ismlar borki, ularga chaqaloqni himoya qilishning vosita va usullarini tasvirlovchi ismlar deyiladi. Bunday ismlar etnografik va onomastikaga oid adabiyotlarda "asrovchi nomlar", "himoya nomlari", "tuban nomlar", "xunuk ismlar" deb ataladi.

Ma'lumki, juda qadimgi davrlardan beri ota-onalar o'z farzandini qandaydir bolaning dushmanlaridan himoya qilib kelgan. Bunday harakat chaqaloqqa beriladigan ismda ham ifodalangan. Bunda bolaning dushmani deb bilingan yovuz kuchlarni boladan uzoqlashtirish ko'zda tutilgan. Shu sababli bolani yomon, xunuk, yoqimsiz, bu bola bizning bolamiz emas, uni topib, sotib olganimiz kabi tavsiflashgan.

Bu choralar orasida bola irodali, u yovuz kuchlar hujumiga bardosh bera oladi deb umidlanish va shunga mos ravishda chaqaloqni mahkam, mustahkam narsalarga qiyoslash alohida o'rin tutgan. Masalan, *Devona, Yomonbola, Yobonqul, Toshbolta, Toshboy, Po'lat, Po'latoy, Temir, No'xta, Sovutboy, Boltaboy, Bolg'aboy, O'roqboy, Anzur, Anzura* (piyoz), *Affon* (badbo'y), *Norachchiq, Sarimsoq, Tolhak*

(achchiq, kakra), *Turushboy* (sho‘r, yoqimsiz), *Begona*, *Bo‘lak*, *Digar*, *Tabdila* (almashtirilgan), *Tog‘aymurod*, *Tog‘aygul*, *Tog‘ayqiz* (tog‘asi uyida tug‘ilgan qiz), *O‘lja*, *O‘lpon* (bolani dushmanlardan asrash, ularni aldash maqsadida uni bironing bolasi, sotib topib olingan bola deb atashgan); *Berk*, *Berkboy*, *Izolat* (himoyali), *Mahsura* (to‘silgan), *Osim*, *Osima* (qo‘riqlangan), *Tabiya* (himoya qilingan), *Qo‘riqboy* (himoyalangan), *Himoyat* (himoya ostiga olingan) (bunday ism berilgan bolalar “bola himoya ostiga olingan” deb tasvirlangan).

Yuqorida ismlar tasnifini keltirganda ism-istaklarni ham tilga olgandik. Antroponimiya tizimining salmoqli qismini onomastikada ism-istaklar yoki *dezirativlar*⁵³ deb yuritiluvchi ismlar tashkil qiladi.

Ism-istaklar deyilganda farzandli bo‘lgan ota-onaning, shuningdek, chaqaloqqa nom berishda ishtirok etayotgan qarindoshlar, yaqinlarning endigina dunyoga kelgan norasidaga izhor qiluvchi niyatlari, xilma-xil orzulari aks etgan ismlar tushuniladi. Bunday istaklar nihoyatda xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, ijobiy munosabat va ma‘nolarni ifodalaydi. Mana shunday hollarda bolaga berilayotgan ismning maqsadini aniq biror niyat, xohish, tilak, umid, ishonch tashkil qiladi. Ism tabiiy holda mana shu tilaklarni anglatuvchi so‘zlardan tanlanadi.

Ism-istaklarda tilak, istak ismning ma‘no-motivini tashkil qiladi. Ism-istaklarda chaqaloqqa aytilayotgan, bildirilayotgan yaxshi niyatlar bo‘rtib ifodalanadi, ism ana shu istakning turli ko‘rinishlarini anglatadigan so‘zlardan yasaladi va tanlanadi. Masalan, ota-ona farzandining jasur, dovyurak, bo‘lib ulg‘ayishini istasa, unga *Jasur*, *Qo‘rqmas*, *Dovyurak*, *Botir* ismlari beriladi. Bunday ismlarni quyidagicha tasniflaymiz: bolaning sog‘-salomat ulg‘ayishi istagini anglatuvchi ismlar: - bolaning sog‘lom o‘shishini istash maqsadi: *Salim*, *Salima*, *Eson*, *Esonkeldi*, *Omon*, *Omonberdi*, *Omonoy*, *Omonturdi* va b.;

Farzandi turmasdan o‘layotgan oilalarda navbatdagi kasalmand bolaga kasalni yengadi, xavf chekinadi, chaqaloqning dushmani bo‘lmish yovuz kuchlar

⁵³ Kenjayeva S.E. O‘zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingivistik tadqiqi. nom...diss. avtoreferati. - Toshkent, 2011.

taslim bo‘ladi kabi maqsadli ismlar berilgan: *Yengadi, Yengildi, Yovqaytar, Yovqochdi, Tasli, Taslima, Qaytar, Qaytgan* va b.;

Bolasi turmasdan nobud bo‘lavergan oilalarda navbatdagi bolaning sog‘-omon yashab ketishiga umid qilganlar: *So‘lmas, So‘lmasoy, So‘nmasin, Tinchar, Turaqol // Turag‘ol, Turdiniso, Turjon, Turar, Tursun, Turg‘un, To‘xta, To‘xtar, To‘xtasin, O‘lmas, O‘ng‘al, Oyto‘xta, Tektur, Turomon*;

Bolaning umri uzoq bo‘lsin, umri bilan bergan bo‘lsin degan maqsadni anglatuvchi ismlar qo‘yilgan: *Ko‘pyashar, Manguberdi, Umrboqi, Umrzoq, Umriniso, Umrixol, Umrsuyun*;

Ulg‘aysin, unib-o‘ssin degan maqsadda qo‘yilgan ismlar: *Ulg‘ay, Ulg‘aysin, Ko‘karsin, Niholboy, Nihola, Niholbib, Unar, Unsin, Unsinoy, O‘sar, O‘skin, O‘ssin*;

Ota-onalar farzandlari ko‘p bo‘lishini, uylari bolalarga to‘lishini istaganlar: *Ko‘paysin, Ko‘pbo‘lsin, Uyto‘l, Uyto‘la, Uyto‘lsin, Uyto‘ldi* va b.;

Ota-onalar tug‘ilgan chaqaloq oldingi farzandlarga, oila a‘zolariga qo‘shilishib, ergashib ulg‘ayishini istaganlar: *Jalg‘ash, Ilash, Ilashsin, Tirkash, Ulansin, Ergash, Hamdam, Hamdambo‘l, Jo‘raboy, Jo‘raxon, Eshbo‘l, Eshbo‘lsin, Eshomon, Eshtur, Eshturdi, Eshturdi, Eshtursun, Eshto‘xta, Sherikboy, Sherikbo‘l* va b.;

Ba‘zi hollarda bola otasi onasi, akasi yoki opasining vafotidan keyin dunyoga kelgan. Bunday hollarda tug‘ilgan farzand marhumlar o‘rnini bossin, bola marhum ota yoki onasidan “yodgor” deb hisoblangan: *O‘rinboy, O‘rinbosar, O‘rinbuvi, O‘rinbadal, Yodgor, Yodgora, Yodgorqiz* va b.;

Bolaning ulg‘ayib ota-onasiga, qarindoshlariga mehribon, g‘amxo‘r bo‘lishini istash maqsadi asosida qo‘yilgan ismlar: *Mehribek, Mehribon, Mehribonu, Mehrdil, Mehriniso, Mehrisuluv, Mehriya* va b.;

Bolaning halol, haqgo‘y, adolatli inson bo‘lishini istash maqsadi asosida qo‘yilgan ismlar: *Adolat, Miradl (adolatli, haqgo‘y), Foruh (haqgo‘y), Harros (haqiqat tarafdori), Haqiqat, Dodar (adolatli, odil)* va b.;

Bolaning pokiza, saranjom-sarishta inson bo'lishini istash motivi asosida qo'yilgan ismlar: *Bejirim* (ozoda, gunohsiz, ko'rkam), *Gulpok* (gullardek beg'ubor, pokiza), *Zarif, Zarifa* (ma'suma, pokiza), *Zilola* (tiniq suvdek pokiza), *Ifofat* (poklik, pokizalik), *Ma'sum, Mubarra* (toza, gunohsiz), *Mubila* (sof, musaffo), *Najobat* (pok, pokiza, oqsuyak naslidan), *So'lim, So'limbibi, So'limoy* (beg'ubor, pokiza, chiroyli), *Toza, Tozagul* (pokiza, ozoda), *Pokiza* (toza, ozoda, gunohsiz), va b.;

Bolaning ziyrak, zukko, tezfahm bo'lishini istash motivi asosida qo'yilgan ismlar: *Ayniya* (ziyrak, o'tkir zehqli), *Badiha* (topqir, zukko), *Basirat* (o'tkir zehqli, idrokli, ziyrak), *Binajon* (o'tkir ko'zli, ziyrak), *Zakiya* (ziyrak, sezgir, tezfahm), *Manzalat* (uddaburon, epchil), *Mahorat* (ustakor, epchil, qobiliyatli), *Topqir* (epchil, tadbirkor), *Fatonat* (ziyrak, idrokli), *Fahima* (ziyrak, aqlli), *Ehtiyotxon* (ziyrak, hushyor);

Bolaning kamtar bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Bayir, Bayri* (jaydari, soddadil, oqko'ngil), *Basit* (sodda, kamtarin), *Jo'ntoy* (kamtarin, sodda), *Kamina* (xoksor, kamtarin), *Kamtar* (kichik fe'l), *Musallim, Musallima* (kamtar, xoksor);

Bolaning yaxshi muomalali, shirinso'z, so'zamol bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Biyron* (ravon tilli, chechan), *Go'yoxon* (so'zamol, chechan), *Daqiqa* (shirinso'z, latif so'z sohibasi), *Zabonboy, Zabonbibi, Zabona* (biyron tilli), *Zaliqa* (go'zal nutq sohibi), *Labshakar* (shirin tilli, dilkash), *Fasih, Fasiha* (chiroyli, ravshan nutq sohibasi), *Fasohat* (chiroyli, ta'sirchan nutq sohibi), *Xushxon* (yoqimli ovoz sohibi, shirintil, xushsuxan), *Chechan* (so'zamol, ravon nutq sohibi), *Notiqa* (burro tilli, nutq mohiri, so'z ustasi) va b.;

Bolaning mehnatkash, mehnatsevar bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Tirishqoq, Tirishqul* (harakatchan, mehnatkash), *Akif, Akifa* (g'ayratli, xudojo'y), *Omilboy, Omila, Sohir, Sohira* (o'z kasbining mohiri), *Foila, Foilabibi, Foilaxon* (mehnatsevar) va b.;

O‘zbek ismlarini stereotipik jihatdan tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an‘analari, dunyoqarashi, madaniyatini o‘zida aks ettira oladi. Ismlar shaxslarni o‘zaro farqlash ehtiyojidan tashqari madaniy, diniy, ijtimoiy-lisoniy vazifasiga ko‘ra ism beruvchilar (nominatorlar)ning muayyan maqsadini ham ifodalaydi. Mana shu maqsad bolaga ism tanlash va yasash uchun asosiy, yetakchi motiv hisoblanadi. Shuning uchun ismlarda nominatorning, bevosita u mansub bo‘lgan xalqning milliy-madaniy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, o‘zbek antroponimlari lingvokulturologiyaning obyekti bo‘la oladi. Milliy stereotipning vujudga kelishi an‘ana va urf-odatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi uchun antroponimlarda juda yorqin ko‘zga tashlanadi. Chunki, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ismlar xalqning turmush tarzi va ma‘naviy-madaniy dunyoqarashining ifodasidir.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Xalqning umumiy milliy-madaniy tushunchalari, qadriyatlaridan tashqari har bir insonning o‘z qarashlari va tushunchalari mavjud. Bu borada ismlarni o‘xshatish asosida tanlash, ism qo‘yilayotgan shaxsni turli tasavvurlar bilan nimalargadir o‘xshatish, unga qiyoslash o‘ziga xosdir. O‘xshatishlar antroponimni qaysi madaniyat vakili ekanligini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi;

2. Go‘zallik va nafosat motivi bilan bog‘liq nomlarning aksariyatini qo‘shma ismlar tashkil qiladi. Ismning old yoki orqa komponenti bo‘lib keluvchi *go‘zal, suluv, jamol, gul, oy, qamar, chechak, pari, nur, nigor* va boshqa so‘zlar ismga ko‘rkamlik, chiroylilik tushunchasini kiritadi va o‘xshatish asosida hosil qilingan deb hisoblanadi;

3. Har qanday madaniyat o‘zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o‘z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga

xosligidir. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. Stereotiplar xalqning borliqni idrok etishi, undan xulosa chiqarishi va amalda foydalanishi asosida vujudga keluvchi his-tuyg'ular majmuidir. Stereotiplar sifatida shaxslar, narsalar, urf-odatlar asosida ham shakllanadi;

4. O'zbek ismlarini stereotipik jihatdan tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an'analari, dunyoqarashi, madaniyatini o'zida aks ettira oladi. Ismlar shaxslarni o'zaro farqlash ehtiyojidan tashqari madaniy, diniy, ijtimoiy-lisoniy vazifasiga ko'ra ism beruvchilar (nominatorlar)ning muayyan maqsadini ham ifodalaydi.

XULOSA

1. Onomastika va uning bir tarmog‘i bo‘lgan antroponimlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda onomastikaning mazmun mohiyatiga, antroponim so‘zining mazmuniy tuzilishiga, antroponimlarning etimologiyasiga, atoqli otlarning strukturasi, ismlarning yuzaga kelishidagi sabab, ehtiyoj, istak-orzu va boshqa xususiyatlariga, ismlar semantik va kontekstual mazmunining munosib yoki nomunosib holatlariga (badiiy asarlar tarkibida), ismlarning davr bilan bog‘liqligiga oydinlik kiritish asosiy vazifa hisoblanadi;

2. Antroponimlarning ba‘zi turlari mavjudki, ularda tarixiylikdan, tarixan bildirgan ma‘nosi bilan bog‘langan motivlaridan tashqari ma‘lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko‘plab uchraydi. Bunda ma‘lum nomli tarixiy shaxslar o‘z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin, kerak bo‘lsa ishonish, o‘sha shaxsga nisbatan havasni, e‘tiqodni uyg‘ota oladi.

3. O‘zbek xalqi tarixda zardushtiylik, buddaviylik va islom dinlariga e‘tiqod qilgan. Bu esa xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzida o‘z izini qoldirgan. Bu o‘z navbatida antroponimlarda aks etgan. Xalq e‘tiqodida eng so‘nggi din sifatida islom dini alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun antroponimlarda islom dini bilan bog‘liq motivatsiya keng o‘rin tutadi;

4. Komponentlari teng bog‘lanishga asoslangan qo‘shma ismlar o‘zbek antroponimiyasining yana bir yasaliş usuli bo‘lib, ismni tashkil etgan qismlar orasida semantik hamda grammatik aloqa yo‘q holda yuzaga keladi. Masalan, *Tursunali* ismi har ikki komponentning o‘zaro “aloqa”si yo‘q. Bu ism qadimgi turkiy e‘tiqodlar (tursun-farzand “turishi”, yashashi uchun qo‘yilgan) hamda islomiy aqida (Ali-xalifalardan birining ismi) larning bir ismga birlashishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday ismlar o‘zbek antroponimik sathida talaygina: *Toshmuhammad, Toshali, Normuhammad, Eshqobil, Ergashali* va boshqalar.

5. Go‘zallik va nafosat motivi bilan bog‘liq nomlarning aksariyatini qo‘shma ismlar tashkil qiladi. Ismning old yoki orqa komponenti bo‘lib keluvchi *go‘zal, suluv, jamol, gul, oy, qamar, chechak, pari, nur, nigor* va boshqa so‘zlar ismga

ko'rkamlilik, chiroylilik tushunchasini kiritadi va o'xshatish asosida hosil qilingan deb hisoblanadi;

6. Har qanday madaniyat o'zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o'z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. Stereotiplar xalqning borliqni idrok etishi, undan xulosa chiqarishi va amalda foydalanishi asosida vujudga keluvchi his-tuyg'ular majmuidir. Stereotiplar sifatida shaxslar, narsalar, urf-odatlar asosida ham shakllanadi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. NORMATIV HUQUQIY HUIJATLAR VA METODOLOGIK AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 486 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 февраль. № 28 (6722).

II. MONOGRAFIYA, O‘QUV QO‘LLANMA, ILMIIY MAQOLA, ILMIIY TO‘PLAMLAR

1. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimgi e’tiqod va marosimlari. – T., 2007.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek antroponimiyasi rivojidadagi ba’zi bir tendensiyalar / Ономастика Узбекистана. Тезиси республиканской конференции. – Ташкент, 1989.
3. Begmatov E. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Begmatov E. Kishi ismlari imlosi. –Toshkent: Fan, 1972. – 384 b.
5. Begmatov E. Nomlar va odamlar // Fan va turmush. – Toshkent, 1965. – № 1. – B. 15-17; № 2. – B. 21-22; № 3. – B. 30 – 33; 1966. – B. 11, 19, 29, 31, 36.
6. Begmatov E. O‘zbek antroponimikasining leksik-semantik xususiyatlari // O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent, Fan, 1965. – B. 83-99.
7. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 1998. – 604 b.
8. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 2007 (ikkinchi nashri). – B. 588.
9. Begmatov E. O‘zbek ismlari. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – B. 195.

10. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
11. Begmatov E., Do‘simov Z., Nafasov T., Qorayev S. O‘zbek tilshunosligi: tadqiq yo‘nalishi va usullari // Xiva. – Urganch, 1991. – №1. – B. 11.
12. Begmatov E., Norqulova M. Ismlarda go‘zallik va nafosat motivlari // Joy nomlari – xalq tili ma’naviyatining nodir merosi. – Navoiy, 1998. – B. 15-16.
13. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi. Bibliografik ko‘rsatkich. – Namangan, 2008. – B. 92-102.
14. Deubner L. Magie und Religion. – Freiburg. Berlin, 1922. – p.6.
15. Husanov N. XV asr o‘zbek adabiy yodnomalaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. DDA. – Toshkent, 1998.
16. Husanov N. XV asr o‘zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. 1-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
17. Husanov N. XV asr o‘zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. 2-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1997.
18. Husanov N.A. XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. – Toshkent, 2000.
19. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. II-III. – Toshkent: O‘zFA, 1959. – B. 157-168.
20. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 176 b.
21. Jabborov E. Abdulg‘oziy asarida berilgan antroponimlar etimologiyasi haqida // Onomastika (Ilmiy maqolalar to‘plami). – Samarqand, 2014. – 2-son. – B. 57-63.
22. Kenjayeva S.E. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi. Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2019.
23. Menajiyev Y., Azamatov X., Abduraxmonov D., Begmatov E. Ismingizning ma‘nosi nima? – Toshkent: Fan, 1968.
24. Menajiyev Y.M., Azamatov X.A. Ismingizning ma‘nosi nima? – Toshkent: Fan, 1964. Ikkinchi nashri, 1968.

25. Menajiyev Y.M., Azamatov X.A. Ismingizning ma'nosi nima? // Fan va turmush. – Toshkent, 1964. – № 7. – B. 16.. 1964. – № 8. – B. 13.. 1964. – № 9. – B. 38.
26. Mirzayev N. O'zbek zooantroponimlari / Onomastika Uzbekistana. Tezisi respublikanskoy konferensii. – Tashkent, 1989. – B. 128-130.
27. Murot O'roz. Turk asotirlari//Sirli olam.-1991.-№6.-B.11
28. Nafasov T., Nafasov SH.T. Atoqli otlarga xos umumiy xususiyatlar // Joy nomlari – xalq tili ma'naviyatining nodir merosi. – Navoiy, 1998. – B. 49.
29. Nosirov O'. O'zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba'zi mulohazalar / Qarshi DPI ilmiy asarlari. 17-kitob. – Toshkent, 1965.
30. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 25 b.
31. Rahmonov M., Mo'minov S. Antroponim va toponimlarda demotivatsiya hodisasi. – Xiva, 1991. – № 1. – B. 20.
32. Rasoniy L. Sur gulguls sutegoties noms de Personnes en ture. Asta Linguistika. III. Budast, 1953.

III. DISSERTATSIYALAR VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATLARI

1. Sattorov G'.H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 1990.
2. Tillayeva M.B. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi (“Avesto” onomastikasiga qiyoslash asosida). NDA. – Toshkent, 2006.
3. Xudoyberganov R. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2008.
4. Xudoynazarov I. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. –26 b.

5. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965. – С. 28.
6. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Fil.fan.d-ri diss.toshkent,2015.
7. Maxmaraimova Sh. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi. Fil.fan.d-ri (DSc) diss.Samarqand,2020.
8. Umurqulov B. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari. Fil.fan.d-ri (DSc)diss.Toshkent,2020.
9. Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)diss.-Toshkent,2019, 21-bet.
10. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди.дисс. –Тошкент, 1993.
11. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ...дисс. –Тошкент, 2001.
12. Курбаназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.
13. Ашуров Д.А. “Алпомиш” достонининг лингвокултурологик хусусиятлари”. Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс-си. Наманган – 2021, 127,128-бетлар.
14. Мирзаалиев И.М. “Қадимги туркий халқлар мақоллар семантикаси ва стилистикаси”. Фил. фанл. бўйича (PhD)доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс-си. Тошкент – 2022, 154 бет.
15. Рустамова Д. “Метафорик эвфемизациянинг лингвокултурологик ва социопрагматик аспектлари” Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) автореф. – Тошкент, Фарғона, 2018. – В.50.
16. Ибраимова Д. “Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик бирликларнинг лингвистик хусусиятлари” . Фил. фанл. бўйича

(PhD)доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс-си.
Термиз – 2022, 133 бет.

IV. LUG‘ATLAR

1. Большой энциклопедический словарь: языкознание / гл. ред. В. Н. Ярцева. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998.
2. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С.
3. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е изд., испр. и доп. — Назрань: Пилигрим, 2010.
4. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: Издательство ИКАР. Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. 2009.
5. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.:Турон замин зиё, 2015.
6. Ю.А.Рубинчик.Персидско-русский словарь. Издательство Советская энциклопедия. – М: 1970 .
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. –М.:Русский язык, 1981. – 631 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2-том. –М.:Русский язык, 1981. – 715 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2006. – 680 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, иккинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2006. – 671 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, учинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2007. – 687 б.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, тўртинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 606 б.

13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, бешинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 591 б.

14. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

V. INTERNET MATERIALLARI

1. <https://diss.natlib.uz>

2. <https://natlib.uz>

3. <http://en.wikipedia.org/wiki>

4. <http://tpl1999.narod.ru/WebTPL2000/KlokovTPL2000.htm>

5. <http://www.lib.vsu.ru/elib/texts/217.pdf>.

6. <http://www.gramota.ru/book/ritorika/index3.htm>.